

SHOYQUL KARIM

# ANOSIR

*She'rlar, g'azallar, to'rtliklar*


Toshkent  
“Yangi asr avlod”  
2006

---

84(54) 6-5 үзб. б.д. 2428  
Шеърлар

Qashqadaryolik shoir Shoyqul Karimning  
e'tiboringizga havola etilayotgan «Anosir» nomli yangi  
to'plamiga saralangan she'rlari jamlandi.

Ushbu nazmiy majmua sizga yoqadi degan umiddamiz,  
aziz kitobxon.



ISBN 5-633-01854-0

© Shoyqul Karim. «Anosir». «Yangi asr avlodii», 2006-yil

## QOLSIN ULUG' ISHLAR BILAN YAXSHI OT...

*Iqtidorli ijodkor Shoyqul Karim: «Istiqlot chechagi», «Adabiyot chorlovi», «Asr nidosi», «Do'stlik qadrati», «Yurak munojoti», «Visol baxti», «Hur ruh» kabi she'riy to'plamlari bilan allaqachon kitobxonlar e'tihorini qozonib ulgurgan. Muallifning bir-biridan go'zal tashbehlari, falsafiy mushohadalarasi asosidagi obratzli she'riyatni o'quvchini yashashga, ijod qilishga, Vatananni, xalqni sevishga da'vat etadi.*

*Shoyqul Karim rang-barang mavzularda qalam tebratsa-da, uning she'rlarida inson qanday yashamog'i kerak, degan muammolli savol bo'y ko'rsatib turadi va ma'naviy nukammallik, odamzod qalbining yangi-yangi qirralari kashf etiladi.*

*Uning she'rlarida ijtimoiy ruh kuchli. Xalqimizning ma'naviy olamida inqilohiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi hayotimiz uchun dolzarb bo'lgan «Ma'naviyat» deh nomlangan she'rini olib ko'raylik. Bunda muallif ma'naviyat haqida qator savollar qo'yib, kitobxon diqqatini hir joyga janlangandan keyin, ushbu savollarga bashariyat tarixidan javob qidiradi hamda ushbu javoblarga o'zinig' munosabatini ham bayon qiladi.*

*Shoir ma'naviy barkamollikka qadim va buyuk tariximizdan ko'plab misollar keltirib, ma'naviy kamolotni, Vatanimiz istiqlolining bosh me'mori bo'lgan Yurtboshimiz misolida ko'radi:*

*...Tug'ilgan chog'ida qasos g'oyasi,  
Koinot xoqoni, tagdir doyasi:  
Millat g'uruvini, kuch-g'ayratini,  
Ma'naviy kamoli, shijoatini,  
Mustahid zamonga o'ch-nafratini,  
Orzu-istiklari, saxovatini,  
Bir buyuk insonda etdi jo-bajo!  
U millatga bo'ldi yo'lechi, rahnamo!  
Islom va Adolat asosin ushlab,  
Bilim va ma'rifat yo'lidan boshlab,  
Yurtni istiqlolga yetkazdi dadil.  
Vatan ozod bo'ldi, yayrab qoldi el...  
Xalqni yakdil etgan ana shu Sarbon  
O'zbek millatiga ma'naviy qo'rg'on!*

*Shoir haqli ravishda, ushbu ma'naviy qo'rg'on atrofida  
birlashsakkinha porloq istiqholga ega bo'lishimiz  
mumkinligini kuylaydi.*

*Istiqlol yo'liga kirgan xalqimiz ma'naviy barkamollik  
uchun kurashni yanada avj oldirishi zarur, chunki:*

*Biroq, hali yo'qmas, qo'msab o'tmishti,  
Panada pinhona ish tutuvchilar.  
El aro targatib har xil mish-mishni,  
Ma'naviy hirlikni portlatuvchilar.*

*Bunday kimsalarga ijodkorning butun nafrati quyidagi  
satrlarda ifodalananadi:*

*Vatan deb, Vatanga qilar xiyonat,  
Shumi ma'naviyat, shumi diyonat?!*

*Shundan keyingina shoir ma'naviyat haqidagi o'z  
tushunchalarini bayon qiladi:*

*Ma'naviyat so'zlar marjoni emas,  
Ruh bilan jonus tan mushtarakligi.  
Kimda-kim Vatanni jomidan sevmas,  
Ikki pul ma'naviyat jonsarakligi.*

*Vatanni sevish tuyg'usi insondagi eng buyuk fazilat –  
iymon tushunchasiga borib taqalishini Payg'amharimiz  
hashorat qilib ketganlaridek, shoir nazarida ham:*

*Elning xizmatiga kamarbasta zot,  
Ma'naviyat buyukdir, go'zaldir hayot!*

*– degan xulosaga borib taqaladi.*

*Umuman olganda, Shoyqul Karim ijodida Vatanga  
muhabbat tuyg'usi alohida o'rin egallaydi. «Vatan mehri»,  
«Majnuntolga», «Ona qalbi», «Qarshi qo'shig'i», «Vatan  
ishqi», «Kesh qo'shig'i» va hoshqa bir qator she'rlarida  
jonajon Vatanimiz, uning betakror go'zallikka ega bo'lgan  
go'shalari tarannum etiladi.*

*Ijodkorning Vatanga bo'lgan muhabbati shu qadar  
ulug'ki, u o'zini Vatan deb atalgan buyuk daraxtning bir  
yaproq 'iga qiyos qiladi.*

*Vatan hir daraxtdır, men hir yaproqman,  
Chırt etib użılsam, misqol tuproqman.  
Vatan mensiz yashar, men esa aslo –  
Vatansız jonsız tan, bir siqım hokman.*

*Uning keyingi davr ijodida Vatanga muhabbat g'oyasi  
yanada chuqurroq ifodasını topadı:*

*Joning aslı mehmondir tanga,  
Uni sadqa ayla Vatanga!*

*Shoyqul Karim she'rлarining o'ziga xos jihatı, unda  
shakl va mazmunning uyg'unlashganligi, har bir she'nda  
mukammal ma'no, aniq bir g'oyaning mavjudligidir.*

*Shoir she'riyatining guhitoji, shuhhasiz, uning to'rtliklari  
desak xato bo'lmaydi. Zero, to'rtliklarda u nafaqat shoir,  
balki chuqur va har taraflama bilimga ega bo'lgan, hayotni  
uzluksiz kuzatish borayotgan olim sisatida ham namoyon  
bo'ladi.*

*Adabiyotimiz tarixida hoshqa kasb egalarining shoir  
va yozuvchi ho'lishgani ko'p kuzatilgan hodisadir. Chunki  
shoirlilik kash emas, balki xudo bergan iste'doddır. Shoyqul  
Karimov iqtisodchi olim. Bu ijodkorning to'rtliklarida  
hayot nafasi va ezzulik usfurih, go'zallik va nafosat qulf  
urib turishiga aslo monelik qilmaydi.*

*Shoir bir to'rtligida inson faqat mol-dunyo yig'ibgina  
umrini o'tkazmasligi, ulug' ishlar bilan yaxshi ot qoldirishi*

*lozimligini ta'kidlasa, ikkinchi bir to'rtlikda yomonlikni  
kashi-kor qilib olgan insonlardan nafratlanadi. Yana bir  
to'rlilikda ilm, jasorat, shon-shavkat, fidoyislikni ulug'lah,  
aglli va yurakli ho'lishga undaydi:*

*Haykalning qinmati salobatidu,  
Mardlikning shuhratijasoratidir.  
Olimlarning obro'yi ilmida bo'lsa,  
Hokimning shavkati adolatdadir.*

*Uning to'rliliklarida insonlarning pok va buyuk niyatları  
quyidagicha ulug'lanadi:*

*Samoni ko'tarmoq bo'lib sinchalak,  
Kichkina jonini etadi halak.  
Bu bizga knulguli tuyular, ammo  
Hurmatga loyiqdır shu buyuk tilak.*

*Shou kishilarni sharmu hayoga, har qanday vaziyatda  
ham iyomon ko'chasini tark etmaslikka, yolg'on-yashiq  
gaplar aytmaslikka, fitna-ig'volar bilan shug'ullanmaslikka,  
halki so'zida ustuvor, do'stlarga sodiq, ilmli-ma'rifatli inson  
bo'lishga chaqiradi.*

*Umuman, shoir she'riyatida, ayniqsa, uning  
to'rliliklarida insonlar ruhiyatidagi turli xil qusurlar:  
riyokorlik, kaltabinlik, maishatparastlik, amalparastlik,  
yolg'onchilik, ig'vegarlik, hasadgo'ylik, shuhratparastlik,  
kalondimog'lik, olchoqlik, zararkunandalik, gumrohlik,*

*vijdonsizlik, tejamsizlik, o'g'rilik, poraxo'rlik, biv so'z bilan  
aytganda, yomonlik yo'liga yetaklovchi barcha illatlarga  
qarshi nazmiy isyon ko'tariladi va hu illatlarni bartaraf  
etish mumkinligi ko'rsatiladi.*

Garchi ijodkor murakkab turmushning ko'p jihatlarini  
qalamga olib, o'z fikr-mulohazalarini go'zal satrlarda,  
mazmundor qilib ayta olgan ho'lsa-da, kamtarlik ko'chasini  
tark etmaydi. U biv to'rtligida shunday deydi:

*Bu olamda yangi so'z aytmoq mushkul,  
Hamma gap ilgari aytib ketilgan.  
Kashfiyat qildim deb maqtanish biv pul,  
Har bitta so'qmoqdan ming hor o'tilgan.*

*Topib aytilgan haq gap. Lekin bu so'qmoqlarda har kim  
o'z izini qoldiradi. O'zidan oldin o'tgan odamlar chiqqan  
cho'qqilarga qayta chiqish ham buyuk baxtdir.*

*Biz shoir ilhomiga parvozlar tilah, yanada yuksak  
cho'qqilarni egallashiga tilakdosh bo'sib qolamiz.*

*Boynazar YO'L DOSHEV,  
O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi,  
filologiya fanlari doktori, professor*

*O'z yurtini sevmagan  
hech narsani sevolmaydi.  
J.Bayron*

### *VATAN ISHQI*

*Vatan bir daraxtdir men bir yaproqman,  
Chirt etib uzilsam misqol tuproqman.  
Vatan mensiz yashar, men esa aslo –  
Vatansiz jonsiz tan, bir hovuch xokman.*



## VATAN

Vatan nima? Tug'ilgan joymi?  
Sen yasalgan tuproqmi, loymi?  
Tepangdag'i osmonmi, oymi?  
Onang chekkan faryodmi, voymi?  
Tangri yaratganda joningni.  
Tuprog'ingni olgan joy, Vatan,  
Bobong qo'yanida nomingni.  
Duoga qo'l ochgan joy Vatan.  
Bedor tunni tonglarga ulab,  
Onang alla aytgan joy Vatan,  
Mualliming qo'lingdan ushlab,  
Alifboni o'tgan joy Vatan.  
G'uncha labli sinfdosh qizga,  
Guldastangni tutgan joy Vatan,  
Ota bo'lib o'g'il va qizga,  
Orzularing bitgan joy Vatan.  
Joning asli mehmondir tanga,  
Uni sadqa ayla Vatanga!!!

## BUGUN MEN HAM SHOIR

Bugun men ham shoir, dilimda g'urur,  
Guyo tole qushi qo'ngan boshimga.  
Uyqudan turganday bobomiz Temur,  
Ohista odimlab keldi qoshimga.

O'tli ko'zlarini ko'zimga tikib,  
Mag'rur boqib turdi bo'yu-bastimga.  
Olis ufqlarga boqdi entikib,  
Men esa, ohista qaytdim aslimga.

Tushmi bu, yo xayol va yokim ro'yo?  
Qay biri ekanin anglamoq qiyin.  
Bir narsa aniqki, biz bilgan dunyo,  
Biz tomonga hugun burmoqda yuzin.

Yurtboshimiz – xalqning asl o'g'loni,  
Xuddi zar qadrini bilgan zargarday.  
Temuriy matonat bilan ish boshlab,  
Elni istiqlolga eta oldi shay.

Ulug' bobomizning ko'r kam haykali,  
Yuksaldi istiqlol maydonimizda,  
Bu demak keldiku o'zbekning gali,  
G'urur va iftixor jo'sh qonimizda.

Dushman ichi kuyib, do'stilar bo'lsin shod,  
Ko'rsin ko'hna olamadolat kuchin.  
O'zbek g'ururini uyg'otgan ul zot,  
Men qo'shiq aytayin yurtboshim uchun!

## **BOYLIK**

Oltin kuz, tabiat sokin va uyg'oq,  
Fayzu-saxovatga dalalar to'liq.  
Go'yo oltin savat har bitta chanoq,  
Do'stlarim bu so'zda mubolag'a yo'q.

Bog'larda g'arq pishgan sharbat mevalar,  
Eram bog'ida ham bitmagay aslo.  
Zilol suvlari ham totli shu qadar,  
Kavsarda ham yo'qdir, qatrasi shifo.

Ey ulug' Vatanim – O'zbekistonim,  
Har fasling bir dunyo, har go'shang jannat.  
Oltin tuprog'ingga sadqadir jonim,  
Jondan ulug' boylik o'zingsan faqat.

## **QASHQADARYO**

Qora buloq bilan Oq daryo suvi,  
Qo'shilib, sharqirab oqqan daryosan.  
Vohalar ichida ko'rkar, suluv'i,  
Ona bo'lib meni boqqan daryosan.  
Ko'kka ustun bo'lgan qoyalaring bor,  
Cho'lda yantoq kovshar tuyalaring bor.  
Muqaddas temuriy g'oyalaring bor,  
Dashtiga oq oltin ekkan daryosan.

Bag'ring dunyo ichra, dunyo qadar keng,  
Mehring o'ti quyosh tafti bilan teng.  
Qahring qahrattonning achchig'idan cho'ng,  
Goh toshqin, goh sokin oqqan daryosan.  
Bir umr ummonga intilib oqding,  
G'animlar ko'ksini naq tilib oqding.  
Oqish, oqmaslikni sen bilib oqding,  
Nahrida zakovat yiqqan daryosan.  
Vatan ag'yorlardan ozor ko'rganda,  
G'anim yerqo'rg'onni bosib olganda,  
Suvingga tupurib, qah-qah urganda,  
Yuz burib teskari oqqan daryosan.  
Yelkangda tug'ildi kancha donolar,  
Abdulla shoirlar, Bedil bobolar.  
Amir Temur kabi buyuk daholar,  
Barini yo'rgaklab boqqan daryosan.  
Bugun holdan tolding, charchading hayhot,  
Suv so'rab tog'lardan kutasan najot.  
Shunaqa betavfiq ekan bu hayot,  
Ko'ksimda dard bo'lib oqqan daryosan.  
Dunyoda yagona Qashqadaryosan,  
Barcha daryolardan boshqa daryosan.  
Bag'ri lim-lim to'la ishqqa daryosan,  
Bu ulug' Vatanga erka daryosan.

## QARSHI QO'SHIG'I

Ona shahrim, qutlug' Qarshimsan,  
Tarixlardan o'chmas naqshimsan.  
Muqaddas yurt, mangu yaxshimsan,  
Doston aytgan o'lmas baxshimsan,  
Rimdan ko'hna, bobo Qarshimsan.  
Sen Novqatsan, qadim Yerqo'rg'on,  
Shullik tepa, Zahhoki Moron.  
Sen Naqshabsan, Nasafsan hamon,  
Qarshimdagi shahri navqiron,  
Dunyo borki, bo'lgaysan omon.  
Istiqlolga oshiq bo'lgansan,  
Balolardan tirik qolgansan,  
Buyuklarga beshik bo'lgansan,  
Baxt-iqbolga eshik bo'lgansan,  
Tilda doim qo'shiq bo'lgansan.  
Jannatlarga qiyos jamoling,  
Dilda g'urur ko'rku kamoling.  
Majnun erur har ekkan toling,  
Mard eling bor, kular iqboling,  
Noming o'chmas, yo'qdir zavoling!

## VATAN MEHRI

Jangda asir tushgan sahroyi yigit,  
Qul qilib sotildi olis diyorga.  
Go'yoki qafasga tushgandir burgut,  
U mayus boqardi qishga, bahorga.  
Sabr va matonat tark etmay uni,  
Aql va idroki bo'ldida posbon.  
Ollohdan tug'diyu yigitning kuni,  
O'sha yurtga bo'ldi u ulug' xoqon.  
Yillar uchqur otday ketdilar o'tib,  
Keksalik xoqonning etagin tutdi,  
Tug'ilgan yurtini qo'ydi unutib,  
Xotiralar uni shunday tark etdi.  
Bir kun karvon keldi ota yurtidan,  
Karvonda bir bog'lam rayhon bor edi,  
Xushbo'y rayhon hidi uni o'rtadi,  
Sho'x-shodon kunlari yodiga tushdi,  
Ko'zda yosh shashqator, bo'ldi dunyo tor,  
Vatan sog'inchidan eridi qalbi,  
Baxt va buyuklikka timsol toj-taxt ham,  
Uni o'zga yurtda tutib qolmadi.  
Voz kechib baridan qudratli xoqon,  
Otini egarlab shahd bilan chandon.  
Yuz tutdi muqaddas ota yurtiga,  
Yo'l bosdi qaramay oldi-ortiga.  
Vatandan muqaddas makon bo'lmagay,  
Vatanni unutgan inson bo'lmagay.

## ISTIQLOL MARSHI

Yashna olam, quvon, ey ko'ngil,  
Bulbul bo'lib sayra biyron til.  
Vujud yayra va tantana qil,  
Axir bugun ozod bo'ldi el.

Ko'z oching qurigan buloqlar,  
Shildirang, ey suvsiz itmoqlar,  
Shodlaning bor urug'-aymoqlar,  
Oxir ketdi dildagi dog'lar.

Chaman quchsin cho'lu sahrolar,  
Yurtdan ketsin galbi qarolar,  
Qo'l ochib qilaylik duolar,  
Tug'ilsin el degan daholar.


Tog'lar yelkasida bir tog' bo'laylik,  
Jannatdan ham go'zal chorborg  
bo'laylik,  
Eng muhimmi tugal va sog' bo'laylik,  
Istiqlolga mangu bayroq bo'laylik.

Rizq mo'l bo'lsin, dasturxon quyuq,  
Olam aro yurt bo'lsin suyuk,  
Baxti butun, qadrati buyuk,  
Dushman o'lsin alamdan kuyib.

Ko'hna tarix zarvarag'iga  
Shu so'zlarni yozaylik o'yib,  
O'zbekiston barcha xalqiga,  
Xudo boqqan mehrini qo'yib.

## KESH QO'SHIG'I

Jannat hidi ufuradi,  
Keshning so'lim bog'lariда.  
Zaminning oq sochi turar,  
Mahobatlı tog'lariда.  
Buyuk bobom Amir Temur,  
Shu o'kada topgan kamol.  
Yigitlari botir, jasur,  
Hur qizlari ostob jamol.  
Shu vohada bir go'sha bor,  
Go'zallikda jannah makon.  
Ko'rgan sarxush, ko'rmagan zor,  
Suvi shifo, havosi jon.  
Miroqidir bu joy nomi,  
Toshdan bo'lgan har bir tomi.  
Qalbingizga otash solar,  
Qizlarining sho'x kalomi.  
Chinorlarin soyasida,  
Buyuk zotlar o'tirgandir  
Daryosining toshlarida  
Ko'hna tarix bitilgandir.  
Ko'piklanib oqqan daryo,  
Roz aytadi chamanlarga.  
Bunda suluv, pari momo,  
Alla aytar sanamlarga.  
Oq ko'ngildir odamlari,  
Mard va tanti, mehri daryo.



Misli guldir dilbarlari,  
Ko'zi yulduz, qalbi dunyo.  
Ona yurtning bir parchasi.  
Shuncha maftun etdi meni.  
Qayrag'ochu ko'k archasi,  
Yerga bezakdir barchasi.  
Ta'zimdaman shu tuproqqa,  
Bir umrlik qarzdor bo'lib.  
Qaytib kelgum bu chorboqqa,  
Muhabbatim izhor qilib.  
Mangu tursin tog'u toshlar,  
Boshidagi oq soch bilan.  
Omon bo'lsin keksa-yoshi,  
Qalbidagi quyosh bilan!

## KA'BA

*Sinfodosh do'stim Baxtiyor hoji Sayfi  
o'g'lining muqaddas  
Haj safari chog'idagi o'ylari*

O tangrim, dargohing bunchalar buyuk,  
Tilni lol qiladi uning ta'rifi,  
Barcha mo'minlarga bir xilda suyuk,  
Ko'zlarga ziyodir hamma tarafi.  
O'zinga shukurkim, qudrating bilan,  
Masjidul haramni ayladim tavof,  
Cheksiz tuyg'ularga to'ldi ruh va tan,  
Go'yoki samodan yog'ildi savob.  
Muqaddas qora tosh – ko'zim qarog'i,  
Misoli dilimni etdi munavvar,  
Ayni shu muqaddas safarim chog'i,  
Ko'nglimga bir tuyg'u yubording, sarvar.  
Deding: – Vataning ham buyuk sajdagoh,  
Yerdagi jannat deb yaratdim uni.  
Ko'zing qarog'iday undan bo'l ogoh,  
Vatanni sevmoqdir umr mazmuni.  
Ilymon va e'tiqod, bilim va qudrat,  
Ko'rinar tug'ilgan yurtni sevishda.  
Uning quchog'ini yashnatib faqat,  
Ibrat bo'lmoq lozim har bir yumushda.  
Ilymon baqvat bo'ldi, ruh yengil tortdi,

Muqaddas Ka'baga bir umr ta'zim.  
Qalbda Vatan mehri ortgandan ortdi,  
Yurtga tez qaytishga ayladim jazm.  
**Kelib** kirarkanman ota Vatanga.  
Yana bir Ka'baga kirganday bo'ldim,  
Go'yo jon kirdiyu jonsiz badanga –  
Yorug' bu olamga qaytadan keldim.

---

*Seygi o 'limdan kuchli...*  
*I. Turgenev*

*Seygi xayolot farzandi va ayni  
chog 'da armonlar onasi hamdir.*  
*M. Unamuno*

## *ISHQ – BU HAYOTDIR*

*Qolmasin desangiz dilda armonlar,  
Seygini asrangiz, aziz insonlar.*



## MEROS

Ishqdan yaralgandim ishq quli bo'lib,  
Bir buyuk muhabbat mahsuli bo'lib.  
O'lganda xokimdan ungan lolalar,  
Qolsa bas, bulbulning mahbubi bo'lib.

Sevgi deb yashasam, yonsam, kul bo'lsam.  
Shamollarda **uchib**, yugursam, yelsam.  
Baxtiyor bo'lardim **oshiq** nafasin,  
Uning mahbubiga **yetkaza** olsam.

Sevib, sevilmagan bandadan qochgil,  
Qalbingni muhabbat mavjiga ochgil.  
Mehringni quyoshdek olamga sochgil,  
Va oydek yoringning izidan uchgil.

Buyuk muhabbatni otadan meros,  
Ololmagan yigit badbaxtdir xolos.

## **SEVGILIM**

Tut tagida topishgan edik,  
Adirlarda chopishgan edik,  
Bahor chog'i sevishgan edik,  
Qishga kelib aytishgan edik,  
Nahot ayro tushsak, sevgilim?

Qol jonginam, bag'rimni to'ldir,  
Erkalanib, nozlanib, kuldir.  
Sevgi otash, ayriliq kuldir,  
Balki unga sabablar mo'ldir,  
Nahot ayro tushsak, sevgilim?

## SEVGINI ASRANG

Sevishganda yoshgina edik,  
Uyalardik ishqidan so'zlashga.  
His-tuyg'umiz yashirib yurdik,  
Kuch yetmadi aytib bo'zlashga.

Yillar o'tib uchrashdik ammo,  
Qani o'sha qomatlar-raso.  
Boshda qirov, qo'llarda aso,  
Majol ham yo'q ishqidan so'zlashga.

Qaltiroq boshlardan uchdi hushimiz,  
Uchib ketgan ekan iqbol qushimiz,  
Nursiz ko'zimizdan oqdi yoshimiz,  
O'tgan u yoshlikni tushdik izlashga.

Endi biz yaraymiz faqat bo'zlashga,  
Oxiratga safar vaqtin ko'zlashga.  
Qolmasin desangiz dilda armonlar,  
Sevgini asrangiz, aziz insonlar.

## **QIZ QO'SHIG'I**

Osmonda oy o'rog'i,  
Sochimda ishq tarog'i,  
Ko'nglimda yor so'rog'i,  
Mard shunqorim, kel endi,  
Sevar yorim, kel endi.

Kashta tikdim senga deb,  
Suratingga berib zeb,  
Uchqur oting yeldirib,  
Mard shunqorim, kel endi,  
Sevar yorim kel endi.

Qorabayir otingdan,  
Qayrilmas qanotingdan,  
Kuylagan bayotingdan,  
Aylanayin, kel endi,  
O'rgilayin, kel endi.

Kelsang ko'nglim tog' bo'lar,  
Xarob kulbam bog' bo'lar,  
Shod-xurramlik chog' bo'lar,  
Mard shunqorim, kel endi,  
Sevar yorim, kel endi.

## ETSA

Istaymanki yanog'ingda quyosh aks etsa,  
Nigohingga ishva-yu **noz**, iqbol raqs etsa,  
Har so'zingda jon olg'uchi nido bahs etsa,  
Tangri meni senga shaydo majnun shaxs etsa,  
Saodatga oshno umrim farahbaxsh etsa.

Olam aro menga ishonch, g'urur o'zingsan,  
Zulmat aro ziyo sochgan bir nur o'zingsan,  
Men telbaga hayotbaxsh bir shuur  
o'zingsan,  
Tole ishqing yuragimga qat'iy naqsh etsa,  
Illohiy bu muhabbatga umrim baxsh etsa.

Izlaringga termulaman **asru**, bemajol,  
Sen yog'dusan, boqolmasman senga, oyjamol,  
Umidim bor nasib etgay menga ham visol,  
Mayli, seni g'animlarim **mandan** rashk etsa,  
Iltijo shu yuragingda sevgi **mashq** etsa.

## BORMI

Seni sevganimga shubhang ham bormi?  
Ermak deb, ishq izhor aylagan yormi?  
Oshiqning hislari shunchalar xormi?  
Yo'lingda boshqalar mendan ham zormi?  
Sochlaring torlari bo'ynimga dormi?

Mayin boqishlar ing o't yoqar jonga,  
Labing qimtishlar ing qo'yar armonga,  
Men bedor ulayman tunlarni tongga,  
O'zga yor kuyida sen ham bedormi?  
Yo ayshu ishratga diling xumormi?

Sochingni maqtaymu yo qabog'ingni?  
Oydek yuzingnimu yo dudog'ingni?  
Xipcha belingnimu yo oyog'ingni?  
Yokim bor bo'yningi, shu siyog'ingni?  
Qadding sarv, jamoling misli bahormi?

Ko'zlar ing jodusi ohuda ham yo'q,  
Yuzlaring jilvasi injuda ham yo'q,  
Qoshu kipriklaring kamon bilan o'q,  
Sochlaring jilosi sehrli va sho'x,  
Sevgim rubobiga sochlaring tormi?  
Telba oshiqqa ham muruvvat bormi?

## BO'LMISH

O'zing ketding, nigohing lek, qaro ko'zim  
aro qolmish.  
Visoling hajridan yo rab, ko'zim battar qaro  
bo'lmish.  
Tuzim og'u, oshim zaqqum, kunim  
motamsaro bo'lmish.  
Chidolmay ayriliqqa bu, dilim choc-chok,  
yarо bo'lmish.  
Muhabbat dardiga yolg'iz shifo, ham  
sevgidir, ammo,  
Muhabbat qancha oshiqlar hayotiga balo  
bo'lmish,  
Kel ey Shoyqul, seni sevguvchilar ham yo'q  
emas aslo,  
Sevilmay o'tgum olamdan, degan so'zing  
xato bo'lmish.

## O'YNAGAY

Ko'rsam ul qomatni yo rab, dilda tug'yon  
o'ynagay,  
Ko'rmasam, battar ko'ngil oshufta giryon  
o'ynagay.  
Jon desam, jon olg'uchi, janonadir jondan  
shirin,  
G'amza qilsa ul agar, ko'zlar nigoron  
o'ynagay  
Lablariga lab uray deb, labga kelgay jon  
netay.  
Vo ajab tegmay turib, tomirdagi qon  
o'ynagay.  
Ul kamon qoshiga joylab, otsa kiprik  
o'qini,  
Ne tiriklar sadqa bo'lgay, ne o'lik jon  
o'ynagay.  
Tangriga ming bor shukurkim, ishqı  
tushmish ko'nglima,  
Shul sabab olam charog'on, yerusmon  
o'ynagay.  
Shoyqulo, qolma visolidan quruq, g'aflat  
bosib,  
Intil unga, toki taqdit senga shodon  
o'ynagay.

## JONONIM

Nega jimsan, jim qo'ng'iroq ham,  
Bir yil kabi uzun har onim.  
Olov bo'lib yondi qalb bu dam,  
Alangasi to'kilgan qonim.

Sukunatni buzib bir bora,  
Qo'ng'iroqning tugmasini bos.  
Ayriliqning dardiga chora-  
Visol, g'amdan ololsin qasos.

Qalbingda gar sevgi bo'lmasa,  
Boqqin deyman ko'ksimni yorib.  
Shunda balki selday oqarsan,  
Bu otashdan muzlaring erib.

Eshitmayman desang gar dodim.  
Kafting bilan lablarimni bos.  
Agar bo'lsang mening jallodim,  
FAQAT soching dorlariga os.

Visolingga shunchalar zorman,  
Bir g'amzanga sadqadir jonim.  
Dunyodagi eng sodiq yorman,  
Yonimga kel, go'zal jononim.

## HADYA

Mayin sochlaringning har tolasiga,  
Ko'nglim rishtalari payvand qilingan.  
Rahm qil qalbimning mung, nolasiga,  
Ishqing pichog'ida bag'rim tilingan.

Oh ursam, olamga o't ketar shu on,  
Yo'lingda bo'zlayman, ko'zlarim giryon.  
Kel ey, darding olay, sevikli jonon,  
Kiprik o'qlaringga jonim ilingan.

Jonim deb joningga jonimni uray,  
Seni jon o'rnida, jonimda ko'ray.  
Hech bo'lmasa bitta qurboning bo'lay,  
Asli bu jon senga hadya qilingan.

## MENGA

Ofatijon bo'ldi jamoling menga,  
Rohatijon bo'lar visoling menga.  
Bu siyrat, bu qomat yolg'iz senda bor,  
Quyosh va'da qilar hiloling menga.  
Labingdagi xolga tegmasa labim,  
Umr nuqtasidir shu xoling menga.  
Oyoq ostingdagi telba oshiqman,  
Qiyo boq, jon solsin kamoling menga.  
Bosib, yanchib o'tding xoru-xas kabi,  
Duzax azobidir zavoling menga.

## ISHQ DARDI

Sevging dardim erur, hasratim g'amim,  
Nahot ko'rinmagay ko'zdagi namim,  
Yodingda o'tadi har on, har damim,  
Oyday visolingdir faqat malhamim,  
Maqsudimga etkur, bo'lgil hamdamim.

Buyur soyang bo'lib ergashay senga,  
Buyuk bir saodat ulashay senga,  
Betakror ishq kuyin bag'ishlay senga,  
Yolg'izim, nozigim, jondan sevganim,  
Maqsudimga etkur, bo'lgil hamdamim.

Gullardan poyondoz to'shay izingga,  
Ko'rsatgil, mahliyo boqay yuzingga,  
Xohlasang jonimni qoqay o'zingga,  
Qarorim, oromim, yolg'iz bir kamim,  
Maqsudimga etkur, bo'lgil hamdamim.

Sen husn sohibi, men ishqing quli,  
Boshqacha bo'lmagay oshiqlik yo'li,  
Vafoga to'liqdir shoirning dili,  
Ostobim, mohtobim, gulyuz malagim,  
Maqsudimga etkur, bo'lgil hamdamim.

## CHAL

G'uncha lablaringda bir dunyo jodu,  
Shahlo ko'zlaringga shaydodir ohu.  
Hatto tishlaringdan to'kilar yog'du,  
Berahm jallodim kel jonimni ol,  
Yoki mehring qo'yib ishq rubobin chal.

Qoshu qabog'laring bunchalar sernoz,  
Yurgan yo'llaringda ishqim poyondoz.  
Vaslingga yetishsam, etardim parvoz,  
Berahm jallodim kel, jonimni ol,  
Yoki mehring qo'yib, ishq rubobin chal.

Oy ham oshiq erur xush xil'atingga,  
Hayotim baxshida sarvi qaddingga,  
Ishqimning otashi urmay badingga,  
Berahm jallodim kel, jonimni ol,  
Yoki mehring qo'yib, ishq rubobin chal.

Yaxshi yot yoriga toshlar otmaydi,  
O'zga yor, ko'chasi tomon o'tmaydi,  
Yorning sirog'i ham yorga botmaydi,  
Berahm jallodim kel, jonimni ol,  
Yoki mehring quyib, ishq rubobin chal.

## O'TSAM

Nahot umrim bo'yi jono,  
Izlaringga boqib o'tsam.  
Hijroningda kuyib Laylo,  
Vujudimni yoqib o'tsam.  
Uyqusiz tunlarda yoding,  
Gar qalbima bo'lsa mador,  
Bu ulug' ishqing tumorin,  
Bo'ynimga men taqib o'tsam.  
Bahorday ochilib tursang,  
Baland sohildayu, hayhot.  
Visolingga etolmay men,  
Toshib, qaynab, oqib o'tsam.  
Umr daryo, oqar shiddat bilan,  
Lekin muhabbat nur.  
Bu sevgi qudratiga she'ru  
Ash'orlar to'qib o'tsam.  
Tegay deb xoki-poyingga,  
Bo'lay ostonangga bir g'isht.  
Magar mahvash shu poyingga,  
Biron gardday yuqib o'tsam.  
Bu baxtdin bosh samolarga,  
Yetardi Shoyqulo bilgil.  
Nigorim boshidan ishq,  
Uchqunini gar to'kib o'tsam.

## TUSAR

Ko'nglim oshyoningda bo'lmoqni tusar,  
Jonim tovoningda o'lmoqni tusar.  
Ruhim qoshing uzra turmoqni tusar,  
Jismim yonginangda yurmoqni tusar.

Mayin sochlaringga jonim taqilgan,  
Kipringing nashtari dilga qoqilgan.  
Ishqingdan vujudim o'tda yoqilgan,  
Ko'mirdek lahcha cho'g' bo'lmoqni tusar.

Go'yoki sen quyosh men esa yerdek,  
Qancha yugurmayin shamoldek, eldek.  
Izingda qolarmen kungaboqardek,  
Ruhim uchib senga bormoqni tusar.

## ISTAK

Sening umring uzun bo'lsin,  
Hech bo'imasin nihoya.  
Dushmanlaring zabun bo'lsin,  
Tangri senga himoya.  
Peshonangda iqbol kulsin,  
Tole bo'lsin hamrohing.  
Qahqahangdan olam to'lsin,  
Bo'imasin dilda ohing.  
Shu shodlikka men ham sherik  
Bulsam deyman goh-gohi.

## ARMON

Armon samosida bo‘zlagan qushman,  
Ishqing sahrosida behol, behushman.  
Senga intilaman, muallaq ruhim,  
Men uchun ro‘yosan, sen uchun tushman.

Poyingda qolmoqda hislarim chimday,  
Ishqimni xor etma, rahm qil jinday.  
Bir telba oshiqman, misli Majnunday,  
Iztirob og‘udir, ayriliq dushman.

Ochilgan g‘unchadek lablaring go‘zal,  
Yopilgan kulchadek yonog‘ing asal.  
Bemorman hijroning o‘rtagan mahal,  
Sensiz ming baloga ro‘baro‘, duchman.

Balkim men sho‘rlikka beray deb jazo,  
Seni yaratgandir ul qodir Xudo.  
Shunchalar ko‘hliksan, bunchalar zebo,  
Shu sarvi qaddingga oshufta, o‘chman.

Ortiqcha gaplarni qo‘yaylik yig‘ib,  
Umr o‘tib borar, kundan-kun tug‘ib.  
Kechamni yoritgil to‘lin oy bo‘lib,  
Ruxsoringga to‘yib, olayin kuch man.

## TOPSAM

Yuzingga boqsamu  
bu bedavo dardga davo topsam,  
Ko'zingga termulib  
nargizlaringdan nur-ziyo topsam.  
Hayotim lazzati sensan,  
yagona maqsadim sensan,  
Labing la'li, yonog'ingdan  
ko'zimga to'tiyo topsam.  
Kel ey Laylivashu Shirin,  
bo'lay Farhodu Majnuning,  
O'zimni telba oshiqdek,  
izingga mahliyo topsam.  
Dudog'ingdan tatib bol,  
sajda etsam gar oyog'ingga,  
Oyog'ing gardida kuygan  
yurakka mo'miyo topsam.  
Qarog'ingga chizolsam  
suratimni o'chmagay nomim,  
Muhabbat mash'alini dilginangda  
jo-bajo topsam.  
Qulidurman vale bo'lqum  
muhabbat ahli sultoni,  
Ayo, Shoyqul, agar sevgan  
nigorimdan vafo topsam.

## ETMISH

Muhabbat qalbimni oshyon etmish,  
Sevging bizni telba, notavon etmish.

Tilim ishq dardidan chekkan nolalar,  
Dilimni chok aylab, laxta qon etmish.

Qaro ko'zlariningdan qoraygan ko'zim,  
Qaro ko'zlariningni xonumon etmish.

Bahorim, nahorim, qarog'im o'zing,  
Borliging umrimni komron etmish.

Taqdir toshi bo'lsa muhabbat agar,  
U mening boshimni tegirmon etmish.

Vafo-sadoqatga oshyon ruhim,  
Majruh tanga sig'may tarki jon etmish.

Olis yulduz kabi bo'lsangda yiroq,  
Xayollarining bizni yonma-yon etmish.

Tuyg'ular tilimni gungu lol aylab,  
Qalbim zabonini ho'p biyron etmish.

Shoyqulga bu baxtdin o'zga ne darkor,  
Taqdir oshiqlarga uni xon etmish.

## BILMAS

Qalbimda sevgi me'yorni bilmas,  
Ammo malagim iqrorni bilmas.

Daryoi ishqim to'lqin ursa gar  
Shiddatdan o'zga qarorni bilmas.

Devona ko'nglim o'zingga shaydo,  
Naylay na hayo, na orni bilmas.

Sevgi g'unchasi qulf urar tinmay,  
Na qishu, na bahorni bilmas.

Kiprik o'qidan ko'ksim yarodir,  
Qoshi kamonim bemorni bilmas

Kimki muhabbat sultoni ermas,  
Ul she'ru doston, ash'orni bilmas.

Shoyqulga ishqing oliy mukofot,  
Sevgi mujdasi bozorni bilmas.

## **BO'YINGDAN O'RGLAY**

Bulbul xonishida gulning armoni,  
Ma'shuqa g'amzasasi oshiq darmoni.  
Umrinming xoqoni, tanimning joni,  
Bo'yingdan o'rgilay, bodom qovog'im.

Husning quyoshiga boqolmay lolman,  
Behushman, bemorman, xasta beholman.  
Qaniydi bo'lolsam labingda xol man,  
Buyingdan o'rgulay, bodom qovog'im.

Olamda sen Zuhro, men esa Tohir,  
Olamga sevgimiz etaylik zohir.  
Ko'zimdan oqizib marjon javohir,  
Bo'yingdan o'rgilay, bodom qovog'im.

## SEVGI

Sevgi dillardagi sehrli ohang,  
Sirlı nigohlarda beradi jarang,  
Insonlar sevgisi erur, turfa rang,  
Nega bundayligin aslo so'ramang.  
Bir yigit o'n olti yoshida sevib,  
Visolga yetolmay yorga yalinib,  
Sakson yoshida ham, «Seni sevdim» – deb.  
Vasiyat maktubin yozganku! Qarang?  
Ishqda ham ulug'dir har bitta daho,  
Zotan buyuklikdan sevgidir sado.  
Sevgida teppa-teng shoh bilan gado,  
Sevsə yoriladi hattoki xarsang.  
Toshga to'qnashsa gar suyukli dildor,  
O'sha toshga mehr bog'lashga tayyor,  
Loyiqdir bo'lishga doim baxtiyor!  
Komronlik sevgiga bo'isin hamohang.  
Sevsang jordan sevgil, bandai olloh,  
Hisob-kitob qilma, bo'magil gumroh.  
Ishqingga o't qo'ysa bir, otashnigoh,  
Yuzing lolaranggu, ko'ksingda yarang,  
Bo'lsa, muhabbatga asirsan inson.  
Demakki, qalbingga ishq bo'l mish mehmon,  
Uning otashida isin, quvon, yon,  
Bedardlar kulingni topsinlar arang!

## BIZ

Ey, parivash men uchun,  
Jon olguchi jonona siz.  
Sochingiz toriga bandi,  
Bo'lgan ul devona biz.  
Osmon yulduzlarining,  
Eng porloq sarvarisiz.  
Vaslingiz orzusida,  
Yurganlara hamxona biz.  
Oynada o'z aksingizga,  
Mahliyo siz o'zingiz.  
Ishqingizdan ko'ksi pora,  
Pora-dil, giryona biz.  
Sevgingizga muntazir dil,  
Tong-saharlar oh chekar.  
Ostonangizga yiqilgan,  
Bir gado, hayrona biz.

## BAHOR MENI ALDAMA

Bahor meni aldama tinch qo'y,  
Bodom kabi erta gullatma.  
Hali qishning tashvishlari mo'l,  
Azboblarga bizni yo'latma.  
Dilbar raftoringni sevmagay ayoz,  
Boychechak hamisha qishning yemishi.

Shoshilma orzular yetilsin biroz,  
Kutaylik chinakam bahor kelishin.  
U albat keladi eshigim qoqib,  
Ma'sum kelinchakdek sochini tarab.  
Quvnoq chakkasiga chechaklar taqib,  
Shunda jamolingga to'ymasman qarab.  
Hayotning bor tashvish va g'amalarini,  
Qalbdan yilib tashlab, chekkaga qo'yib.  
Rutubatli qishning alamlarini,  
Bahor bo'sasidan olarman, to'yib.

## KO'ZIM

Ko'zlaringga boqib yonadi ko'zim,  
Ruxsoringdan to'ymay so'nadi ko'zim.  
Qancha tikilmasin, xumordan chiqmay,  
Har gal boqqanidan tonadi, ko'zim.  
Ajab, bu muhabbat ilohiy nurmi?  
Yo'qsa qaydan qudrat oladi ko'zim.  
Ayriliq onlari ming yilga tengdir,  
Jonne jahannamga soladi ko'zim.  
Yo'lingga to'rt bo'lib tikilgancha goh,  
So'ngsiz azoblardan toladi ko'zim.  
Parivash yorim bo'l, yonimda bo'lsang,  
Maftun nigohingdan qonadi ko'zim.

## O'TINCH

Qachon, malak, soch toringga ilindim,  
O'shal onda og'ir dardga chalindim,  
Rahm et, deya senga ming bor yalindim,  
Tashlab ketding ko'ksi yaro jayronni,  
Kimsasiz sahroda, mulki vayronni,  
Oh ursam ohimdan kuydi ohular.  
Ko'zlarimdan oqdi gavhar, injular,  
Dardimdan tosh qotdi hattoki qumlar.  
Falak ko'rmagandi men notavonni,  
Bedavo, benavo, jonsarak jonni.  
Visol deb o'rtanar laxcha cho'g' qalbim,  
Visol deb oh chekar qaqragan labim.  
Vaslingga yetmoqdir yolg'iz bir g'amim,  
Agarki sendursan husn sultoni,  
Vaslingga yetkurgil bizdek gadoni.

## IZLAB

Yo'lingda gирgitton yuribman izlab,  
Yolg'iz bir martalik visolni ko'zlab.  
Seni qynamayman dardimni so'zlab,  
Jamoling ko'rmasam o'tarman bo'zlab.  
Ilohiy bir mehr tushsa gar dilga,  
Hattoki kesak ham kirajak tilga.  
Sensiz har daqqa tengdir ming yilga,  
Hijron tilkalaydi, qalbimni tuzlab.  
Oy bilan quyoshdek talpinsakda gar,  
O'rtada turibdi zamin degan shar.  
Lekin sevgimizga guvohdir bashar,  
Bizni duo qilar necha lab, yuzlab.  
Menku zamindagi xokisor banda,  
Vasling istagini etmasman kanda.  
Sevgingla yashayman toki jon tanda,  
Ishqingdan erirman qolsamda muzlab.

## BOTMISH

Azizim ko'ngillar g'amlarga botmish,  
Nigohlar alamli namlarga botmish.  
Ko'zlardan sirqigan qon tomchilardan,  
Bog'ingda gullar ne ranglarga botmish.  
Qalbim suv ichay der, mehru vafodan,  
Ammo zor qaqlaydi jabru jafodan.  
Shu bois oh urib qilgan navodan,  
Olamning tegrasi changlarga botmish.  
Qalbim tug'yon urar izlabadolat,  
Yurakka chang solar tuhmat-razolat.  
Nahot umr shunday, ro'zi qiyomat,  
Avval ham, oxir ham, munglarga botmish,  
Poyonsiz olamga, ey hukmron zot,  
Dardu anduhlardan bormu hech najot,  
Oddiy qushchaga ham bergansan qanot,  
Odamizot esa go'nglarga **botmish**.  
O'zing karam ayla najot **ber** Olloh,  
Ortiq qiynalmasin bandai gumroh.  
Yo'qsa aybimizni yashirgay tuproq,  
Jonsarak jonimiz go'rlarga botmish.

## ROMAN

Mening jonim sendirsan, men senga  
xokipoman,  
Muncha go'zal qizdirsan, husningga men  
shaydoman.  
Misli qizil guldirsan, hidlaringdan adoman,  
Sochlari sunbuldirsani, alarga jon fidoman.  
Bulbul lol qolar bir bor eshitsa ovozingni,  
Yetti iqlim tanidi ta'rifu ovozangni.  
Nechun biz g'ariblarga ochmaysan  
darvozangni,  
Bo'sag'angni tagida, ingrab yotgan sadoman.  
Sarv qaddingni ko'rib, sarv bo'yin bekitgay,  
Ko'zlariningdan uyalib, yulduz ro'yin bekitgay.  
Vaslingga etgan oshig', nechuk armonsiz  
o'tgay,  
Oshiqlar ichra shohman, orazingga gadoman.  
Sadasdek oq tishlaring duru marjondan ortiq,  
Jamolingni bir ko'rmoq jumla-jaxondan ortiq.  
Qabul et qilay nisor, senga shu jonim tortiq,  
Axir, jonim o'zingsan, menku, bir bebaqoman.  
Ishqing o'ti qalbimni kuydirmoqda bearmon,  
Sabru toqat qolmadi, tanni tark etdi darmon.  
Shoyqul boshini egib kutmoqda sendan  
farmon,  
Oyog'ingga yiqilib, boshla, deb – «ishqiy  
roman».

## BASHARIY SEVGI

O'limdan qudratli, bahorday go'zal,  
Hayotda neki bor baridan afzal.  
Faqat nigholarda yozilgan g'azal,  
Quyoshdan o'tliroq, boldan totliroq,  
Gohida jondanda aziz, lek yiroq,  
Inson yuragida yongan shamchiroq.  
Betakror bir tuyg'u, orombaxsh qayg'u,  
Chaqmoqdan zo'r yog'du, bebahoh inju,  
Olloh yorlaqagan, bashariy sevgi.

## ISHQ SIRI

Hazrat Sulaymon bir payt,  
Shunday degan edilar:  
«Ayol jondan shirinroq,  
Lek o'limdan achchiqdir».  
Shundayligin ulug' zot,  
Aniq bilgan ekanlar.  
Kimki aqldan yiroq,  
Qalbida otash cho'g'dir,  
Uyida yonmas chiroq,  
Lablarida uchug'dir,  
Chunki uning joni ham,  
Vujudu, jahoni ham,  
Muhabbatga asirdir,  
Sevgi shunaqa sirdir.

## SONET

O, malak, sitamlar qirolichasi,  
Soching tun, yuzingdir oyning parchasi,  
Ishqingga intizor ko'ngil darchasi,  
Ko'zlardagi yog'du sevgim jarchisi.  
Darig' tutma meni lutfu karamdan,  
Ado bo'lmay tag'in qayg'u alamdan,  
Shunday ham orom yo'q dildagi g'amdan,  
Yoningga borarman shomu ajamdan.  
Oftobdek chehrangni bir ko'ray, mayli,  
So'ngra davom etsin ayriliq sayli.  
Ishqim panoh bo'lsin, maskanim sahro,  
Telba Majnun bo'lay ishqingda Layli.

## FIDO BO'LDIM

Qaro qoshing qarosidan ado bo'ldim,  
Go'zal qaddu kamolingga fido bo'ldim.  
Ko'ngil lim-liq to'liqdir dardu ishqingla,  
Kuyingda xonu monimdan judo bo'ldim.  
Yo'lingda jon nisor etmoqni chog'lab,  
Izingni o'pkali bir hokipo bo'ldim.  
Qayon borsam so'roqlab mo'tabar noming,  
Oyog'ing gardiga oshiq sabo bo'ldim.  
Yetay deb, ham to'yay deb oy jamolingga  
Qulog'ingda jaranglovchi sado bo'ldim.

RAD ETMANG

Siz meni sevmang, mayli,  
Sevishimni rad etmang,  
O'tli sevgim tufayli,  
Yonishimni rad etmang.  
Tunlar to'lg'anib, bedor  
Saharlar oh chekib, yor,  
Kunni o'tkazib xumor,  
Yurishimni rad etmang.  
Jondan shirin jonona,  
Siz shamu men parvona,  
Nuringda yona-yona,  
O'lismi rad etmang.

BO'LIB

Sen bahorday yashna, gulla, har yonog'ing  
ol bo'lib,  
Lablaring qoshida qolsin, qatra yoshim xol  
bo'lib.  
Kirgil umrim bog'iga ey, sen go'zal nihol  
bo'lib,  
Xizmatingda men yuroyin, qul bo'lib, gado  
bo'lib.  
Jon seni ardoqlasin jon ichra misli jon  
kabi,

Yurmasin har xil g'animlar o'rtada dallo  
bo'lib.  
Sarvi bo'yingga bo'yimni tirkak aylay toki,  
sen,  
Qarg'alar qo'nsa boshingga qolma qadding  
dol bo'lib.  
O'tkazaylik umrimizni qo'sh niholdek yonma-  
yon,  
Sen magar sarviravon, men bitta majnuntol  
bo'lib.  
Soya salsa boshimga ul jannatmakon  
shamshod qadding,  
Ruhima kirgay soyangdan har kuni iqbol  
bo'lib.  
Iltijo aylay Xudoga bizni hech ajratmasin,  
Ayriliq tushsa kuyib, kul qoldiray misqol  
bo'lib.  
Sen bahorday yashna, gulla, har yonog'ing ol  
bo'lib,  
Lablaring qoshida qolsin qatra yoshim xol  
bo'lib.

## YO'Q

Tushimda ko'rib seni, uyqudag'i podshohman

Mangu uxlasmal deyman , bundan boshqa  
niyat yo'q.

Oyog'ing gardi bo'ldi ko'zlarimga to'tiyo,  
Sen parvoi-palaksan ,yo senda diyonat yo'q.  
Ishqing tomirda o'tdir, kuydiradi otashday,  
Mumkinmi omon qolmoq, hech qanday  
kafolat

yo'q.

Ag'yorlar suhbatida shodon o'tar har kuning ,  
Oshiqqa bundan ortiq fitnayu malomat yo'q .  
Har zulfiingga ming oshiq bandi bo'lmishdir  
hay-hay

Orasida birorta men kabi vallomat yo'q .

Shaydo Shoyqul sha'niga bir og'iz shirin so'z de,  
Boshim ko'klarga yetsin so'ng mangu qiyomat  
yo'q.

## **HIOL**

Osmonga to'lin oy chiqdi **musaffo**,  
Zarrin nurlarini sochdi boshimdan .  
Qalba ajib tuyg'u bo'ldi **oshno**,  
Oy darak berganday qalam **qoshimdan**.

Shirin orzularla tongni ham kutdim ,  
Quyosh sharq ufqidan ko'tardi boshin.  
Vo ajab nechukdir oyni unutdim,  
Yorimga o'xshatdim samo quyoshin.

Qora bulut chiqdi osmonga nogoh,  
Ostobim betini **qopladi** shu on.  
Sharros yomg'ir quydi men **esa evoh**,  
Alamdan yig'ladim bulutday nolon.

Birdan yomg'ir tindi , ko'kda kamalak,  
Yorim sochidagi sirli jamalak.  
Misoli jilvagar ko'rsatdi jamol,  
Bu yorim qoshlari va yokim hilol.

INTIZOR GO'ZALGA

Qosh ustiga qo'l qadab yo'lga tikilgan go'zal,  
Intizor yuraklari yorga intilgan go'zal.  
Hur Vatan quchog'ida o'sib yetilgan, go'zal,  
Hayotning kitobida baxti bitilgan, go'zal.  
Kelib qolar kutganing visolingga zor bo'lib,  
Yurtim sarhadlarini qo'rqlilab, hushyor bo'lib.  
Qarashlari burgutday,yor deguday yor bo'lib,  
Adashmasam shundayga boshing chatilgan,  
Muhabbat go'shasida ochilgan bir  
go'zal!

Muhabbat go'shasida ochilgan bir  
g'unchasan,  
Oftobda qancha chiroy bo'lsa o'zing  
shunchasan,  
Ortiqcha so'z ne darkor, ishq degan  
tushunchasan,  
Shoirlarning she'rida ta'rif etilgan, go'zal.  
Meni hatto sezmadning g'arq bo'lib hayollarga,  
Parron teshib dilimni solding o'zga hollarga.  
O'xshamagin ba'zi bir bevafo ayollarga,  
Ne yigitlar izingda qaddi bukilgan go'zal.

## HAZIL

Yoshlikda bir do'stim qulog'im cho'zdi,  
Yana biri esa tugmamni uzdi,  
Boshqasi barmog'im omburda ezdi,  
Meni ovutishdi «hazillashdik» deb.

Maktabda qizlardan xatlar olardim,  
Kim yozgan ekan deb o'yga tolardim ,  
Bir kun bittasini tutib ham oldim,  
Meni yupatishdi «hazillashdik», deb.

Rost bilan hazilning farqiga bormay,  
Umrni o'tkazdim bilib-bilolmay,  
Zora ajalni ham bir kuni shunday,  
Chaqirib olishsa, «hazillashdik», deb.

BO'LARKAN

Gul ishqida bulbulning bag'ri kabob bo'larkan,  
Parvona sham kuyida kuyib betob bo'larkan.  
Chin dildan sevgan oshiq: ham bulbulu parvona,  
Ishqini bayon etsang katta kitob bo'larkan.  
Visolga yetguncha to, bechora oshiq giryon,  
G'ussadin nahor etsa, ko'z yoshi ob bo'larkan.  
Vaslidan dil munnavar ,yor boqsa shodu xandon,  
Hijronidan alamnok, yo'qsa xunob bo'larkan,  
Sevganlar murodini kim hosil etmoq o'lsa ,  
Umri zavolni bilmay, baxt behisob bo'larkan.

G'UNCHA LAB

G'unchalar hayron qolur ochganda yorim  
g'uncha lab,  
Lutf ila ketgay dilimga .shunda dildor o't qalab.  
Vasli shamining bo'lib menkim ajab parvonasи,  
Hajri har soat ko'ngil uyini o'tgay tiralab.  
Qancha оylar o'tdi ishqи birla qonlar yuttirib,  
Ne azoblar hor ekan ruhsoriga qo'yguncha lab.  
Bilsam oshiqqlarga hijron jabri bulmish imtihon,  
Baxtlidir rozi bo'lib. oshiqqa yori ochsa lab.

## TOSH VA SUV

Qoyaga tegib-tegib daryo yo'lini o'zgartirar,  
Toshga urilib go'yo, shishaday chil-chil sinar.  
So'ngra unsiz oqadi shitob bilan quyiga,  
Unga hech kim tegmasin, qo'yinglar o'z yo'liga.  
Qoya to'lqin zarbidan bo'lar silliq va shodon,  
Keyinchalik yemirilib, qulab tushar bir zamon.  
Qalbda ishqim go'yoki, to'lqin urgan bir ummon,  
Sening qalbing tosh kabi, hissiz erur begumon.  
Lekin tosh ham eriydi muhabbatning taftidan ,  
Sen tosh emas, afsuski, parcha loysan aftidan.  
Cho'kindiga aylanib qolib ketgung sohilda,  
Armonda men ketarman ishqimni ko'mib dilda.  
Sezmay qolarsan balki baxting xazon bo'lganin,  
Bebaho muhabbatning suvday arzon bo'lganin.  
Bir kun kelib daryoning sarchashmasi quriydi ,  
Shunda balki, qalbingda qolgan muzlar eriydi.

AYLARMIKAN

## ISHQ – HAYOT

Men sizni sevardim , dilda hayajon,  
Vujudda beqiyos ehtiros bilan.

Bosgan izingizga baxsh etardim jon,  
Har nigohingizga sadqa aylab tan.

Ona tabiatga qilib iltijo,  
Omonlik tilardim ruxsoringizga.  
Qalbimga yor edi doim bir nido,  
To‘yib-to‘yib boqmoq diydoringizga.

Ne bo‘ldi, teskari boqdingiz menga ,  
Dunyo muzlab qoldi sizdek quyoshsiz.  
Sovuq urgan guldek orzularimga,  
Endi qarolmayman aslo ko‘z yoshsiz.

Majolsiz tanimda iztirob, alam,  
Uzlat botqog‘iga botganman go‘yo.  
Mendan pesh yo‘ldagi tashlandiq tosh ham,  
Ofat boshim uzra ko‘rsatar ro‘yo.

Dunyoda tiriklik ishq bilan obod,  
Ishqsiz inson umri bo‘lajak barbod.  
Lekin sen sevsangu, sevilmasang gar,  
Dunyoda yashamoq ne darkor hayhot!

DAMLAR

Umrimga achinmadim, sevgi yor bo'lgan  
damlar,  
Charchash nima bilmadim, baxtim bor bo'lgan  
damlar.  
Holdan toyib yig'ladim, qalbim xor bo'lgan  
damlar,  
Yashashdan ham zerikdim, dunyo tor bo'lgan  
damlar.  
Ayniqsa yor vasli deb, intizor bo'lgan damlar.  
Sher kabi mard bo'ldimu burgutday baland  
parvoz.  
Sevgim mani ayladi bulbul kabi xushovoz,  
Qulfu dilim yashnatsa, yorim qilgan ishva-noz.  
Sabolarga kuyladim, gul bargiga etdim roz.  
Yor vasliga yetishib, baxtiyor bo'lgan damlar.  
Baxtu iqbol o'tkinchi, dilda qolar o'kinchi,  
Hayot shunday zalvorli, ko'tarib ko'r  
yukin-chi?

IZTIROB

Muhabbat kuydirib, so'ng har dilga solgay  
iztirob,  
Ishq o'tar lekin mudom ko'ngilda qolgay  
iztirob.  
Qalbda saodat o'rnnin egallab olgay iztirob,  
Do'zaxiy g'am-g'ussaga bahona bo'lgay  
iztirob,  
Tiriklay go'rga tiqib, so'ngra yo'qolgay  
iztirob.

Sevgida qilsang xato boshingga ming tashvish  
tushar,  
Ko'zlarining giryon bo'lib, aqlu hushing  
boshdan uchar.  
Gar visoli rohatingdir, hajri ko'ksingni teshar,  
Bevafoni sevsasi kim, osh o'rninga og'u ichar,  
Anordek yuzlaringni sarg'aytirolgay iztirob.

Garchi sen ishq bog'ining benazir bog'bonisan,  
Yo muhabbat yurtining eng buyuk xoqonisan.  
Sevganiningning joniga joni nisor bir jonisan,  
Sirg'asan qulog'iga, bo'ynidagi marjonisan.  
Muhabbat kuydirib so'ng har dilga solgay  
iztirob!

KELUR

## BO'LGAY

Agar sevgi o'ti yoqsa qutilmog'ing gumon  
bo'lgay,  
Jigar xunu, vujud giryon, rangi ro'y zaferon  
bo'lgay.  
Magarkim yam-yashil archa esangda  
sarg'ayib, so'lib,  
Qurib ildiz, sinib shoxing, o'tin bo'lmoq ayon  
bo'lgay.  
Agar yoring quyosh bo'lsa, o'zing tuproqda  
yotgan tosh,  
Visoli hajri kuydirsa, kuning elda nihon  
bo'lgay,  
Mobodo jilva aylab, oftobing gar tushsa  
yoninga,  
Tanangga jon kirib, jisming samandardek  
jahon bo'lgay.  
Ayo Shoyqul, sani shu kunlara yetkursa  
ollohing,  
Bu dunyo jannatiga yetganing zo'r doston  
bo'lgay.

## FIG'ONIMGA

Visolingga tashnaman jonim,  
Yo'q halovat jismi jonioimda,  
Qayon bormay xayol senda,  
O'zga hech yo'qdir jahonimda.  
Misoli ko'z qarog'imsan,  
Oftobu mohtobimsan,  
Kunu tun tinmayin porlab,  
Turarsan osmonimda.  
Mobodo gul yuzingga parda  
Tortsu ko'kdagi abr,  
Ikki ko'zim buloqdir boq,  
Ikki chashmi ravonimga.  
Agar vaslingga yetmay  
Noumid o'tsam bu olamdin,  
Ko'zingga yosh olib yurma  
Qoluvdim deb, tovonimga.  
Vale baxting tilab, sevdim,  
Ko'zingda yosh ko'tar bo'lsam,  
Go'rimda tinch yotolmam,  
O't ketar har ustixonimga,  
Ayo Shoyqul muhabbatning  
Qulisan ikki olamda,  
Falak ham aks-sado bergay,  
Sahar chekkan fig'onimga!

## AJRALGAY

Muhabbat ko'chasiga kirsa kim, es-hushdin  
ajralgay,  
Oyog'in ostini ko'rmay, aqrabo xeshdin  
ajralgay.  
Ko'ngliga bir sanam yoqqay, ko'zi ruxsoriga  
boqqay,  
Qiyo boqsa kuni tuqqay; ko'kaldosh eshdin  
ajralgay.  
Visolga yetsa jannatda, yo'qsa qolgay  
arosatda,  
Qutilmay hech malomatdan kasb-koru ishdin  
ajralgay.  
Sevgi erur buyuk ne'mat, sevilmoqning o'zi bir  
baxt,  
Ikki tanda bitta yurak ursa, tashvishdin  
ajralgay.  
Ishqni etsin deb sarafroz, sevishganlarga  
aytdim roz,  
Bo'lsa agar mazmun sayoz, «qoliplar  
g'ishtdin»ajralgay.  
Shoyqul faqat ishq qulisan, oshiqlarning  
bulbulisan,  
Balki sen majnun elisan, yo'ling behishtdin  
ajralgay.

## SEVDIMU...

Sevdimu, lek sevilmasdan alam sahrosida  
yitdim,  
O'zimni g'am, g'ussa, anduh, sitam daryosiga  
otdim.  
Bo'yinga tosh osilgandek, bo'lib g'arq ishq  
azobiga,  
Oyog'din to qulog'imcha malomat loyiga  
botdim,  
Najot yo'q na samodin, na yer yuzida biror  
yog'du.  
Umidimdin umid uzdim, ilohimga fig'on  
etdim.  
Vahiy keldi: dilim ravshan, vujud forig' bo'lib  
darddin.  
G'amu anduh alamlarning, barin bir pulga  
men sotdim.  
Ochildi ko'z, qizardi yuz, bahorga o'xshadi xar  
ro'z,  
Tabassum qildi taqdirim, zaminda erkalab  
yotdim.  
Aql peshlandi bildimki, hayotning besh kuni  
bordir,  
Uni menga ato etmis, nechun izlab uni  
kutdim?  
Magar tangrim menga lozim topibdi ishqda  
kuymoqni.  
Aning xumdonida pishmay, qiyomga yetmayin  
netdim?

*Bolalarni baxtiyor qilishga intilib,  
o‘z baxtimizni topamiz.  
Afrotun*

### *INSONNING QANOTI – DO‘STI*

*Hayot nurafshondir do‘st bilan bo‘lsang,  
Mehringni bersanggu, o‘ynasang,  
kulsang.  
Bir sodiq do‘st qolsa izingda agar,  
Sen mangu tiriksan hattoki o‘lsang.*



## BAXT HAQIDA

Baxt asli ushalgan orzumi, yoxud  
Yorning sevgisimi, qalbda yongan o't?  
Yo Vatan mehrimi, bebahoh yoqut,  
Balkim otam aytgan ma'noli o'git?  
Mobodo **baxt** erur tengsiz shon-shuhrat,  
Ruhning yuksaklarga qilgan parvozi.  
Tangridan kimgadir mislsiz qudrat,  
Ato bo'lib, ko'kka o'rlasa sozi,  
Ehtimol baxtlidir o'sha odamzot?  
Aslo unday emas, Baxt o'ta shaddod,  
Bokira qiz kabi injiq va go'zal.  
Ko'z qisib, jilmaysa bo'lgungdir o'sal,  
Baxt izlab yer yuzin zabit etgan shohlar.  
Yetmadi, o'lib ham, baxtsiz arvoхlar,  
Baxtning yo'llarida qazilgan choхlar,  
Undan tinmay yangrar mungli oh-vohlar.  
Baxtni qidirganlar baxtsizlar erur,  
Baxtiyor odamga baxt nega zarur?  
Oddiy haqiqat shu – yashashning o'zi,  
Talotum taqdirning iqbol yulduzi.

## BITIRUVCHILAR

O'n bir yil o'qidik qo'yningda maktab,  
Ilm egalladik, o'rgandik adab.  
Sha'ningga she'r bitsak, qanchalar maqtab,  
Arziydi qadron, aziz matabim,  
Shavkating ulug'lash erur matlabim.

Murabbiy ustozlar g'amxo'r, mehribon,  
Suqrotdek beg'araz, buyuk charog'bon,  
Yosh nihol o'stirar, misoli bog'bon,  
Ustozlar basharning ko'rki naqshi-da,  
Musaffo tuyg'ular sizga baxshida.

Yoshlik xotirotin yurakda saqlab,  
Sinfdosh barchamiz ketamiz tarqab.  
Yashaylik ustozlar o'gitin oqlab,  
Chunki otadan ham ulug' ustozdir,  
Ustozi ulug'ning dasti darozdir.

So'nggi qo'ng'iroq ham chalindi bugun,  
Qalblarni hayajon chulg'aydi butun.  
Xayr bolaligim, salom yangi kun,  
Faqat, sinfdoshlar qayda bo'lsak ham,  
Vatan taqdiriga bo'laylik hamdam.

## TAQDIR

Ne buyuk tog'larni qulatgan taqdir,  
Yaxshini yomonga yo'latgan taqdir  
Arslonni qashqirga savatgan taqdir,  
Mardlarni balchiqqa bulatgan taqdir.

Bunday o'yiningga emasman qoyil,  
Senda na qonun bor, na bir tamoyil  
Sen uchun muhimdir shaklu shamoyil,  
Mazmun toptaladi, xo'rلانار oqil.  
Odamni jannatdan quvlatgan taqdir.

Vijdon nomusini sotganlar aziz,  
Soyada ishlamay yotganlar aziz.  
Tiriklar xoru zor, o'tganlar aziz,  
Gunohi azimga botganlar aziz,  
Ey g'irrom bazmini o'ynatgan taqdir.

Adolat deb o'tdi Hazrati Odam,  
Hatto payg'ambarni ado etdi g'am.  
Bandai mo'minning ikki ko'zi nam,  
Uvvos solging kelar qilganda alam,  
Olchoqni boylikka o'rgatgan taqdir.

Qotil pora berib, mutlaq "oqlanar",  
Poraxo'r haj qilib shundan "poklanar".  
Qallobning ishi "besh" kayfi chog'lanar,  
G'arib bechoraning bag'ri dog'lanar,  
Uning qalbin qonga to'latgan taqdir.

## TARIXCHI AKAM SHODI KARIMGA

Tarix saboq berar bashariyatga,  
Garchand bashar tarix yaratguvchisi.  
Kimdir nazar solib abadiyatga,  
Tarix zarvarag'in bezatguvchisi.

Oson ish emasdur bundayin yumush,  
Qorani qorayu, oqni oq deyish.  
Sarg'aygan varaqlar g'amini yeyish,  
Haqni tiklay olmay dardida kuyish.

Qancha toptadilar tariximizni,  
Yoqdilar, yirtdilar, olib ketdilar.  
Goho biz unutsak o'zligimizni,  
G'animlar shod bo'lib, bazm etdilar.

Shunda qafasdagi bir tog' burguti,  
Vujudiga sig'may qalbdagi o'ti.  
Baralla olamga jar soldi shunday:  
"Qafasdaman ,biroq emasman to'til!"

Haqiqatni aytmay tura olmayman,  
Yolg'on-yashiqlarni ko'ra olmayman.  
Adolat tantana qilmog'i uchun,  
Kurashmay tinchgina yura olmayman.

Kurashmoq shioru, iroda qurol,  
Moziy esa misli sarchashma.  
Millat uchun hatto u bo'ldi qarol,  
Vatan, erk yo'lida fidoyi, tashna.

O'tmishning chang bosgan varaqlaridan,  
Ajdodlar orzusin topa bildi u.  
Voz kechib zamona sharaflaridan,  
Qalamni qurodek ishga soldi u.

Qafasdan qutulgan sor lochinimdek.  
Bugun yuksaklarga intilar xalqim.  
Unga madad bergen og'a-inimdek,  
Quvonchga to'lmoqqa bor to'la haqqim.

Zamona zayliga boqmagan akam,  
Istiqlol tufayli yetdi murodga.  
Tarixdir basharga eng oliv hakam,  
Haqiqat o'xshaydi uchqur G'irotga.

Uning qanotiga mingan mard o'g'lon,  
Olis ufqlarga shaksiz yetajak.  
Bu uchqur samandir, hur O'zbekiston,  
U olam ahlini qoyil etajak.

## YAXSHILAR VA YOMONLAR HAQIDA

Yaxshilar diydori jannat, olamga u yog'du  
solar,  
G'am bilan kulfat arib, dilning g'ubori  
tarqalar.  
Ko'zlar ohanrabodir, har so'zi dardga davo.  
Yaxshiga ergashsa kim, iqbol rubobini chalar.  
Lek, yomondin asra tangrim, ko'rsatma hech  
ruksorini,  
Past nazar birla boqib, qo'zg'atmasin dil  
zorini,  
Ne yomonlarni o'zing qilgan edingku korini,  
Yaxshilardan nom qolar, ammo yomondin  
dog' qolar.  
Hatto ilonning zahridan yaxshi topar oromni,  
Yomon to'lar zaharga, yeb ham ichib haromni.  
Xudo ko'tarsin bunday, badkirdoru g'irromni,  
Yemonlar kuni bitib, yaxshiga iqbol kular.  
Yaxshilardan bu zamin, obodu charog'ondir,  
Qayda bir yomon bo'lqa, unda nola-afg'ondir.  
Yaxshilarga ergashgan, chin, haqiqiy insondir,  
Yomon yomonga esh, yaxshi yaxshilardan  
kuch olar.

## RO'ZG'OR

Qancha topsang shuncha yutgay,  
Deydilar ro'zg'or «g'or».  
Shul sabab qilgil qanoat,  
Gar o'yingda neki bor.

Rizqu ro'z kelmas samodan,  
To'kmasang peshona ter.  
Bilki sen, chekmay riyozat ,  
Topmagay hech kimsa yor.

Ba'zilar yengil hayot deb,  
Kechdilar vijdondan ham.  
Lekin afsuski bozorda,  
Pullanarmu nomus-or?

Kimsa ranj chekmas hayotda,  
Kimsa to'plar molu ganj.  
Oqibat bu molu davlat,  
Boshiga bo'lgusi dor.

Poklik insonga baxtdir ,  
Ey o'g'il bo'lgil halol.  
Bir umrga yosh go'dakday,  
Beg'ubor bo'l, beg'ubor.

## AZIZ UKAM

Go'dakday pok, tog'day ulkan,  
Sherday mag'rur, gulday ko'rkam,  
Burgut kabi odil o'ktam,  
Inson bo'lgil, aziz ukam.

Ko'zlariningda hayo bo'lsin,  
Har so'zingda ma'no bo'lsin,  
Qilgan ishing a'lo bo'lsin,  
Kamol topgin, aziz ukam.

Ilm olib, o'sib-ulg'ay,  
Ilm ulug' davlat bo'lgay.  
Ilmsizning rangi so'lgay,  
G'ayrat qilgin, aziz ukam.

Odamiylik qomusi shul,  
El-yurtingni aylagil gul,  
Yordamga bor uzatib qo'l,  
Saxovat qil, aziz ukam.

## OMADSIZGA

Azizim, yo'lingni to'sgan emasman,  
Senga og'irim ham tushmagan aslo.  
Sha'ningga tegar so'z aytgan emasman,  
Risqingga sheriklik qilmadim da'vo.

Hovlingga devorim tachlamas soya,  
Hatto bir ariqdan suv ichmaganman.  
G'oyangga o'xshamas mendagi g'oja,  
Tumanli o'ylarga hech uchmaganman.

Nazar solganim yo'q sen sevgan qizga,  
Hasad qilmaganman shon-shuhratingga.  
Balkim, havas bilan boqqanman senga,  
Sherik ham bo'lganman goh kulfatingga.

Xo'sh unda nechun sen kuyib, yonasan?  
Nechun ovvorasan qadamim o'lchab?  
Aqlu hushdan mahrum bir devonasan,  
Ig'vo toshlaringni yo'limga to'shab.

Har bir yutug'imdan ozorlanasan,  
To'lg'onib, o'rtanib, taningda joning.  
Kulfatimni ko'rib zavq-shavq olasan,  
Tilloga to'lgandek bo'm-bo'sh hamyoning.

Balki, tanangda et, suyak o'rniga,  
Temirni ishlatgan edimi tangri?  
Shu bois ularda ilik o'rniga  
Zahar-zaqqum oqar alamlar zangi.

Axir hammamiz ham bandai olloh,  
Dunyoda to'rt kunlik mehmonmiz asli.  
Bir joydan kelgandir ham sog'u gumroh,  
Bir joyga borajak odamzot nasli.

Buncha adovatga ne hojat aytgin!  
Olam shodligidan quvonib yasha.  
Jirkanch va badmurod yo'llardan qaytgin!  
Dildagi kirlarni chiqarib tashla.

Yasha bu dunyoda yorug' yuz bilan,  
Nasib qilsin topgan bir burda noning.  
Qalbingni pok saqla, sof bo'lzin iymon,  
Doim yashnab tursin shu xonadoning.

Mening yuragimda kir va hasad yo'q,  
Bir tishlam nonimdan rohat olaman,  
Ey, qalbi hasad va ig'vega to'liq,  
Senga ham shu baxtni tilab qolaman.

## TUSHUNMASMAN

Hayot iqbolimi, tashvishsan?  
Savolingga tushunmasman.  
Bahormu, yozmu yo qishsan,  
Bayoningga tushunmasman.  
Tug‘ulmoq birla o‘lmoqning,  
Orasi bir qadam yo‘ldir.  
Misoli bir uchar qushsan,  
Ravoningga tushunmasman.  
Gohi mardumni ezgaysan,  
Faqat go‘rdan najot topgay.  
Go‘zal oshyonni buzgaysan,  
G‘azab oting qanot topgay.  
Yutar dono zahar-zaqqum,  
Vale nodon navvot topgay.  
Shosharsan tinmayin olg‘a.  
Dovoningga tushunmasman.  
Bulutdek goh yog‘adursan,  
O‘tarsan goh nam tomdirmay.  
Birovgal borni to‘kkaysan,  
O‘zgaga zarra qoldirmay.  
Ogarsan rizqu ro‘zini  
Va hatto jonnibildirmay.  
Nedur asror, nedur ro‘yo,  
Ayoningga tushunmasman.  
Senda ming yil yashab Luqmon,

Bilolmay ketdi holingni.  
Hatto payg'ambarlar o'tdi,  
Anglolmayin maqolingni.  
Bilolgay bandasi qaydin.  
Bu aftoda maqomingni.

## ONAM ALLASI

Onam allalari tushar yodimga,  
Buvimning g'aroyib ertaklari ham.  
Otamning pokiza niyatlariga,  
G'arq bo'lib ulg'ayar jonbaxshim bolam.

Vatan nurga to'liq, xonadon to'kin,  
Har dilda orzular qoqadi qanot.  
Shundayin yelkalab baxt-iqbol yukin,  
Go'zal va mazmundor kechmoqda hayot.

## ESTAFETA

Olg'a chopib borar umr karvoni,  
Go'yoki to'xtashga yo'qdir bir oni.  
Horg'in yo'lovchining qolmas darmoni,  
Oromin yo'qotib qiynalib joni.

Sarbaland cho'qqidek boshda oppoq qor,  
Ko'zdan nur ketadi, beldan ham mador.  
Qomat ham bukilar, qo'l hassaga zor,  
Qarilik eng buyuk tashvishlar koni.

Shunda gar yoningda zabardast o'g'ling,  
Hayot shamchirog'ing umrbaxsh yo'ling.  
Yugurib kelsayu ushlasa qo'ling,  
Sen hali tiriksan tangri insoni.

Sening irodangni, tafakkuringni,  
Beqiyos qudrating, ko'zda nuringni.  
Shiddating, shuhrating va shuuringni,  
Ollo shu o'g'lingga bergen zamoni  
Senga umrboqiy hayot atodir,  
Boshqa barcha o'ylar bilki xatodir.

## ABADIYAT

Uyqusiz tun, sarhush xayollar,  
Hushni olislarga olib ketadi.  
Miya g'uvillaydi, ko'zlar ham tolar,  
Bosim ko'tarilib boshga tepadi.  
To'lin oy sukunat sarvari misol,  
Zarrin nurlarini zaminga elar.  
Sanoqsiz yulduzlar miltirar behol,  
Samo yo'llarida shashqator yillar.  
Yangi tong, yangi baxt, ro'shnolikdir,  
Iqbol rishtalari qo'lidan tutadi.  
Kelajak shu kundan boshlanar albat  
Hamda u abadiy davom etadi.

## CHASHMA

Yo'lovchi chanqog'in qondirgan chashma,  
O'zi ham chanqog'dir, mehrga tashna.  
Sen, ey, chanqog ini qondirgan oshna,  
Hayot chashmasiga bir nazar tashla.  
Bir zum sukut saqla, o'yga tol bit on,  
Bir ojiz kimsaga bo'ldingmi darmon?  
Dunyoga ne uchun kelgansan inson?  
Xotirangni kovla, boshingni qashla,  
Chinakam qayg'uga kelganmisan duch?  
Yig'lagan go'dakni ovutdingmi hech?  
Nimang bor, savob deb qiladigan pesh?  
Yo'qmi? Baxti qaro ko'zingni yoshla!  
Hayhot, sen dunyoga kelganining bekor,  
Sensiz ham tugaldir bu qadim bozor.  
Olganing haromu, berganing ozor,  
Do'zax seni qo'msar azob-otash-la.  
Biroq ezungulikning bo'limgay kechi,  
Yaxshilik hayotning mangulik xeshi.  
Tavbag'a kelmaslik mushrikning ishi,  
Savob deb, savob deb, harakat boshla.  
Yaxshilik bor olamning tegrasi to'liq,  
Hayot ustunidir faqat yaxshilik.

## KUTISH

Seni kutmoqdaman baxtim umrbod,  
Xayoling qalbimda, noming tilga yod.  
Ba'zida cheksamda alamli faryod,  
Komronlik orzusi behad qilar shod.  
*Garchi g'amza qilmas parivash taqdir,*  
Nomard kimsalarga bo'lsamda tahqir.  
Bir kun duch keladi Xo'jai Xizir,  
Degan umid menga bog'laydi qanot.  
Yelib-yugursamda, kulmasa omad,  
Nonga ham yetmasa, kelgan daromad,  
G'amdan ko'z ko'rmasa, bukchaysa  
qomat,  
Baribir tugamas mendagi sabot.  
Chunki umidsizlik tiriklay o'lish,  
Inson bolasiga yarashmas bu ish,  
Yotgan tosh tagidan suv ham oqmasmish,  
G'ussalar chekinsin, yashasin hayot.

## HAR TO\*KISDA BIR AYB

Hayot o'zi shunaqa,  
Cho'mich kular chelakdan.  
Har to'kisda bir ayb bor,  
Lek o'zi sezmas zinhor.  
Qish bo'lmay kelmas bahor,  
Ayb izlamang falakdan.  
Olam bekam yaralgan,  
Sirlar bilan o'rالgan.  
Yolg'iz narsa so'rالgan,  
Yuring to'g'ri yo'lakdan.  
To'g'ri yo'l, nurli yo'ldir,  
Unda eзgulik mo'ldir.  
Yashashdan ma'no shuldir,  
Qidirmangiz bo'lakdan.

## VAQT

Vaqtni hakam derlar, biroq ne uchun,  
Vaqt o'tar ko'rsatmasadolat kuchin?  
Vaqt hakim deyishar, bu ham emas chin,  
U bedavo dardga malham bo'lolmas.  
Vaqt buyuk hisobchi, betakror ustoz,  
Uning o'lchamida lahza qishu yoz.  
Bunday hisob-kitob bilmas e'tiroz,  
Garchi sir-asrорин hech kim bilolmas.  
Vaqt tinim bilmagan yo'lovchi misol,  
Oshiq yigit kabi izlaydi visol.  
Koinot cheksizdir, vaqt ham bezavol,  
U bir soniya ham to'xtab qololmas.  
Sira ortga qaytmas falakning charxi,  
Faqat kundan-kunning bo'lakdir tarxi.  
Musibatga tengdir, shodlikning narxi,  
Kimdir holdan toyar, vaqt esa tolmas.  
Demak, vaqt hakamdir, najot undadir,  
Demak, u hakimdir, hayot undadir.  
U buyuk ustozdir, sabot undadir,  
U toshqin daryodir, oqmasdan qolmas.

## SHER BILAN QARG'A

Qarg'a bir kun maqtandi sherga,  
“Hayvonlar ichida oqsoqol o'zim.  
Eng qadim mavjudot erurman yerda,  
Va uzoq yashayman rostdir bu so'zim.  
Urug'imiz olamda eng ko'p tarqalgan,  
Ola qarg'a, ko'k qarg'a, qora qarg'a biz.  
Sho'rtumshuq ham deyishar ayrim bilmagan,  
Baquvvatmiz, nigoh o'tkir, uchqurmiz va tez.  
Emish nima tanlamaymiz, is bilmasmiz biz,  
Murdorlikda tengimiz yo'q, o'laksa yeymiz.  
Shu boisdan yomonlarni bizga mengzashar,  
Qarg'a nomin olajakdir barcha betamiz.  
Lekin, zamon bizga boqqan hamisha, harvaqt,  
Faslni ham tanlamaymiz, kun o'tsa faqat.  
Ko'ngilxushlik bizga odat bahor, yoz va kuz,  
Shunday ekan biz dunyoga xoqon bo'laylik.  
Taxtni bo'shat, tojni uzat, o'zing ket bundan,  
Davron surib, biz qarg'alar o'ynab-kulaylik,  
Dargohingga kelganimiz bilgilki shundan".  
Bu so'zlardan sherning juda ensasi qotdi,  
Ammo zarra pinagini buzmadi arslon.  
Erinchoqlik bilan sekin bir na'ra tortdi,  
Shu zahoti qarg'alardan qolmadni nishon.

## CHEMPION

Mana u, shohsupada viqorla turar,  
Mag'rur ko'zlarida sevinch yoshlari.  
Qalbida bir dunyo quvoch va g'urur,  
Chindanam xursanddir vatandoshlari.  
Ey, sen unga havas qilguvchi bola,  
Bunday shuhrat yo'li osonmas bilgil.  
Sen ham tunlaringni tonglarga ula,  
U kabi mashq qilib, olg'a intilgil.  
Shunda manglayingda porlaydi quyosh,  
G'alaba nash'asi bo'lar hamrohing.  
Yiqilsang sakrab tur, to'kma ko'zdan yosh,  
Qo'rquvni bilmasin ko'zing, qarog'ing.  
Doimo o'zingga, kuchingga ishon,  
Busiz yutuqlaring bo'lgusi yarim.  
Qalbingni pok saqla, halol bo'l har on,  
Shunda qo'llar seni Ollohu Karim.

## YURAK MUNOJOTI

Haqsizliklar alamin tuyib,  
Nega tinmay ingrab, yonasan?  
Kul bo'lmoqni istaysan kuyib,  
Ko'ksim yorib chiqmoq bo'lasan.  
Bilsang, agar ko'hna dunyoning,  
Ishi doim biri kam bo'lgan.  
Zamonga shoh bo'lgan dahoning,  
Ko'zida yosh, boshi xam bo'lgan.  
Dunyoni zabit etib Iskandar,  
Armon bilan uni tark etgan.  
Omad unga yor bo'lsada gar,  
U dunyoga qup-quruq ketgan.  
Omad o'zi nimadir? Bilsang,  
Suyuqyoq satangday bir gap.  
Sendan qochar uni qidirsang,  
Yo'liqsang ham berib ketar chap.  
Parvo qilmay yashasang shodon,  
Dajjal taqdir kirdikoriga.  
Mag'lublikda kulolsang xandon,  
Shukr qilsang, neki boriga.  
Omad o'zi izingdan tushgay,  
Baxt eshigi ochilgay so'zsiz.  
Sarhushlikdan eting uvishgay,  
Zafar mayi ichilgay so'zsiz.  
Qalbim shunda qilib munojot  
Dersan, buncha go'zaldir hayot?!

## INSON QALBI

Inson qalbi qo'g'irchoqmas, uni qynamang,  
Bu aslida parcha etdir, deb ham o'ylamang.  
Odamlarga bo'lar-bo'lmas so'zni  
so'ylamang,  
Ko'ngillarga tosh otmangiz, aziz odamlar!  
Pok niyatli inson qalbi misoli quyosh,  
Nur sochganda bahra olar undan qari, yosh.  
Payg'ambardir shunday odam, unda tilla bosh,  
Ulug'larga tosh otmangiz, aziz odamlar!  
Kimdir nolon qalbidagi dardu alamdan,  
Ruhi tushkun, qizargandir ko'zları namdan.  
Madad istar uning ko'ngli har bir odamdan,  
Yiqilganni hech tepmangiz, aziz odamlar!  
Xudo bergen risq-nasiba bir kun tugaydi,  
Pok dillarda mahshar kuni alam bo'lmaydi,  
Qora qalblar, nega sizni Xudo urmaydi?  
Qodir Olloh karami keng aziz odamlar!  
Ne bo'lsada qalbimizni pok saqlaylik biz,  
Tangri taollo o'gitlarin ham olaylik biz.  
Pok niyatlar chizig'idan hech chiqmaylik biz,  
Shunda turmush go'zal bo'lar aziz odamlar!

## DO'STLIK QUDRATI

Bahaybat chinorga chirmashgan tokning,  
Shoxlarida ko'rdim marvarid uzum.  
Uzun norvon qo'yib, intilib zo'rg'a,  
G'arq pishgan mevaning bir boshin uzdim.

Tomog'im kuydirib, tilimni yordi,  
Jannatiy mevaning totli sharbati.  
Miyamda shunday bir fikr jo'sh urdi;  
Shu qadar buyukdir do'stlik qudrati.

Chunki bu uzumda tok va chinorning,  
Jismi va joni ham bo'l mish mujassam,  
Cheksiz qudrati bor chin do'sti borning,  
Gar sodiq do'st bo'lsa uning o'zi ham.

## KIM SODIQ DO'ST

Aybingni ko'rsayu, yumsa ko'zini,  
Bilib-bilmaganga olsa o'zini.  
Avaylab gapirsa har bir so'zini,  
Do'sting o'zim desa, ishonma aslo.

Boringda yoningdan jilmasa nari,  
Yo'g'ingda bo'lmasa sen bilan kori.  
Qalbing gar bo'lsada uning bemori,  
Do'sting o'zim desa, ishonma aslo.

Do'stman demasada, bo'lsa madadkor,  
Baxtingga sherigu, g'amingga hamkor.  
Yo'g'u boringda ham birday xokisor,  
Bo'lsa u do'stingdir, ajralma aslo.

## DO'STLIK

Masofa ayirar do'stni do'stidan,  
Ba'zan u olisdir, gohida yaqin.  
Agar do'st chiqmasa va'da ustidan,  
Do'stlik rishtalari uzilar sekin.  
Va hatto do'stlikka berilar barham,  
Adovat oladi mehr o'rnini.  
Do'sti bu yaraga qo'ymasa malham,  
Oraga suqadi dushman burnini.  
Haqiqiy do'stlikka masofa cho'tmas,  
Davr to/lg'oqlari berolmas zarba.  
Qalbaki do'stlikning tig'i ham o'tmas,  
Ko'rinxmay ketadi misoli zarra.  
Do'stlik qalb quyoshi sochsa nurini,  
Olis-olislardan isitar ruhing.  
Do'stingga bermasang qalbing qo'rini,  
Yaxshidir olamda boringdan yo'g'ing.  
Do'stlik fidoyilik timsoli bilsang,  
Hayot nurafshondir do'st bilan bo'lsang.  
Mehringni bersangu, o'ynasang, kulsang,  
Bir sodiq do'st qolsa izingda agar,  
Sen mangu tiriksan, hattoki o'lsang.

## O'RMONGA O'XSHAYDI DUNYO

O'rmonga o'xshaydi asli bu dunyo,  
Unda bir adashsang topmaysan yo'lni.  
Hattoki so'qmoqlar aldaydi go'yo,  
Bu holat eslatar sarhadsiz cho'lni.  
Lekin o'rmonning o'z egalari bor,  
Ular til topishar har yaproq bilan.  
Ana sher yuksakda turar purviqor,  
Tulki xizmatdadir zir-titroq bilan.  
Bo'ri pinak qilar eman tagida,  
Ayiq ovvoradir asal qidirib.  
Olmaxon o'ynaydi daraxt shoxida,  
Maymun bit teradi, yolg'iz o'tirib.  
Quyonga sezildi ilon nafasi,  
Joni oyog'idan uzildi nogoh.  
Qaydadir yangraydi bulbulning sasi...  
Hushyor sher taxtida barchadan ogoh.  
Shaxsan tekshirib ham turadi goh-goh,  
Sirtlon ba'zan yo'lida qazib qo'yar choh,  
Qashqir esa sekin qo'yadi tuzoq.  
Sherning nazaridan qolmas biror sir,  
Shu bois o'rmonda xoqon o'shadir.

## TARIXNI O'QIB

Tarix sirlaringdan odamzot hayron,  
Bu dunyoni etding necha bor vayron.  
Baxtga intilganni aylading giryon,  
Ba'zida nokaslar surdilar davron.  
Har bir sahifangda faryod va fig'on,  
Tuyoqlar dupuri, yong'in bilan qon.  
Dahshatli to'fonlar, quturgan vulqon,  
Ko'z oldimdan o'tar tizilib marjon.  
Timmay charx uradi bu yeru osmon,  
Olg'a qarab borar to'xtamay bir on.  
Minutlar qo'shilib yaralar zamon,  
Yangi sahifalar bo'lar namoyon.  
Ortiga boqsa gar qoqilar inson,  
Omaddan ajralib, bo'lajak sarson.  
Najot istiqbolda, oldinda sarbon,  
Olg'a intilganning hayoti komron.  
Tarixni o'qimoq g'oyat yaxshi ish,  
Undan ham ulug'roq, tarix yaratish.

## MAJNUNTOLGA

Ona qishloq – majnuntolimsan,  
Risqu ro'zim, nurli hovlimsan.  
Ro'shnoligim, shakar bolimsan,  
Yer ilmida buyuk olimsan.  
Qayda bo'ilsang mehring qalbimda.  
Qo'shiq bo'lib yangrar labimda.  
Har ishimda, har bir gapimda,  
O'zing hamroh, ham madorimsan.  
Mehnat bilan topgan baxtini.  
Hech buzmagan bergen ahdini.  
Qo'riqlagan toju taxtini,  
Soyabonim, nomus, orimsan.  
Yigitlaring cho'rt kesar, botir,  
Qizlar esa mehrigiyodir.  
Ishqdan so'yalar hatto chol-kampir  
Go'zal go'sham, yo'g'u borisan.  
Kindik qonim tomgan zar tuproq,  
Ona suti kabi pok, oppoq.  
Ey mo'tabar jannatiy qishloq,  
Jannatmakon majnuntolimsan...  
Ash'or bo'lgan, o'y-xayolimsan...

## ONA QALBI

*Hamid Olimjonganazira*

Qadim zamonlarda dovqur bir yurtda,  
Yashardi ona va o'g'il baxtiyor.  
O'g'il o'xshar edi yovqur burgutga,  
Onaga jon fido qilishga tayyor.  
Shu yurtga bir kuni yov keldi bosib.  
Shahar qishloqlari kul bo'lди yona.  
O'g'ilning beliga shamshirni osib,  
Yurtmi qo'riqlashga yubordi ona.  
Yigit janggoh sari borarkan jadal,  
Qalbida bir tashvish alanga olar.  
Jangda o'lib ketsam, yetib gar ajal,  
Yolg'iz onajonim ne kunga qolar?...  
Dushmandan zarracha qo'rwmagan botir,  
Ko'nglidagi hisdan bo'lib xavotir,  
Orqaga qaytardi bedov otini,  
Ona qarshisida bo'lди u hozir.  
– Onajon sadqaman qadamlaringga.  
O'zing azizroqsan vatandan menga.  
Mensiz holing nima kecharin o'ylab.  
Jangga kirmay, ajal tig'ini aldab.  
Huzuringga keldi yakka-yolg'izing,  
Hukm ayla, eng oliv hakamim o'zing.  
Ona faryod chekdi ko'ksini tilib:  
– Dushmandan neuchun qochding ey g'arib,

Vatan xoiniga ona bo'lgandan.  
Yaxshiydi tiriklay o'lsam sarg'ayib...  
Yigit xatosini tushundi shu chog',  
Qalbida vulqonday otildi bir oh:  
– Kechirgil, onajon, men ojiz, gumroh,  
Sening buyukliging bilmabman, ey voh!  
Shunday deb, otiga sakrab mindi u,  
Zum o'tmay dushmanga bo'ldi ro'baro'.  
Arslonday tashlandi yovning boshiga,  
Ajalni ulashdi qari-yoshiga.  
Bunday jasoratni ko'rgan yurtdoshlar,  
Kuch to'plab dushmanga qildilar hamla.  
Qonga belandilar dalayu dashtlar,  
Bir tan – bir jon bo'ldi yosh, qari, hamma.  
Qip-qizil qon kabi botarkan quyosh,  
Dushman o'z yurtiga qochardi bebosh.  
G'azab chaqnar edi mardning ko'zidan.  
Hayqirib borardi dushman izidan.  
Og'riq nimaligin sezmas badani,  
Lovullab yonardi yarador tani.  
Shunday quvib bordi yovni sarhadga,  
Va otdan yiqildi chidolmay, dardga.  
Yurtdoshlar bosh uzra ko'tarib uni,  
Qo'lma qo'l eltdilar ona qoshiga.  
Olam ko'rmagandi buncha qayg'uni,  
Daryo dosh bermasdi elning yoshiga.  
Ohista silarkan o'g'lining boshin,

Faqat onaizor to'kmadi yoshin.  
Farzandi qonini surtdi ko'ziga,  
Nurafshon qizillik urdi yuziga.  
Lablari pichirlab unsiz so'zladi:  
Ko'zida yosh yo'g'u qalbi bo'zladi:  
"Bergan oq sutimga roziman bolam,  
Bugundan seniki ikkala olam.  
Sen Vatanni asrab jon fido etding,  
Buyuk qahramonlar kabi ish tutding".  
Shundan so'ng elatga tikildi ona,  
Boshin mag'rur tutib, dadil, mardona.  
Dedi: "O'g'lim edi menga yagona,  
Endi u sizga ham farzanddir yana".  
Botirni ko'mdilar baland qoyaga,  
Haykal ham qo'ydilar ulug', purviqor.  
Uning timsolida yetdi voyaga,  
Shu aziz Vatanda qancha zo'r shunqor.  
Mushtipar onasi vatan ramziga,  
Aylandi shu yolg'iz o'g'li sababkor.  
Go'zal poytaxtdagi ulug' maydonda,  
Yodgorlik qo'yildi unga betakror.  
Zotan hammamizga Vatan onadir.  
Ona ham, Vatan ham, bil yagonadir.

## IMTIHON

Taqdir degan tushuncha bekor,  
Imtihondan iborat hayot.  
Sog' o'ladi, tirikdir bemor,  
Ilmi borlar uchar beqanot.  
Goh ichilgan qultim suv sinov,  
Imtihondir hatto nafas ham.  
Seni ovilar umr degan dov,  
Ba'zan ovchi o'zingga hamdam.  
Go'zallik ham imtihon erur,  
Molu davlat barisi sinov.  
Sinov erur shon-shuhrat, g'urur,  
Hatto odam sevgisi sinov.  
Sinovlardan o'tolmay goho,  
Tirik murda bo'lib yurishar.  
Sinovga dosh bersada, ammo,  
O'lib barhayotdek turishar.

## KO'RINAR

Istaklarda inson ko'rinar,  
Juda aniq, oson ko'rinar.  
Kim niyati pok bo'lsa agar,  
Martabasi osmon ko'rinar.  
Jondan sevsə ona diyorin,  
E'zozlasa bog'u bahorin,  
Hurmat qilsa do'st ila yorin.  
Umri go'zal, komron ko'rinar.  
Sadoqatda bo'lsa yagona,  
Hasad, ig'vo unga begona.  
Rozi bo'lsa ota va ona,  
Ul sohibi davron ko'rinar.  
Mehnat qilsa, ter to'ksa tinmay,  
Ilm izlasa hech bir erinmay.  
Olg'a bossa charchashni bilmay,  
Manzil buyuk, qo'rg'on ko'ringay.  
Inson bo'lmoq ilmu hikmatdir,  
Yashash o'zi ulug' ne'matdir.  
Bekor yurmoq katta kulfatdir,  
Uning rangi somon ko'rinar.

BO'LSA

To'siqlar chekinadur dilda iroda bo'lsa,  
Bilakda kuch, miyada aql ziyoda bo'lsa.  
Sarkashlik bo'lar odat, qo'lingda boda bo'lsa.  
Oyog'i yerga tegmay, boshi samoda bo'lsa.  
Umri tashvishga to'liq, uyda yor bo'la turib,  
Doim fikru hayoli boshqa zeboda bo'lsa.  
Rohat nedur ko'rmagay, elga manzur

bo'lmagay,  
Har maqomda o'ynasa, misli shabboda bo'lса.  
Vatanga xizmat qilsa, do'sting qadrini bilsa,  
Nurli manzilga yetgay, garchi piyoda bo'lса.  
Inson umri qultum suv, to'kilsa tamom  
bo'lgay,  
Vaqt yetgach oqib ketgay, hatto daryoda  
bo'lса.  
Chunki taqdir azaliy, rizqu ro'z o'lchamlidir,  
Nasibang yetib borgay, go'shang sahroda  
bo'lса.

## FIKRLAR HAQIDA QO'SHIQ

Fikrlar g'oyalari moma-doyasi,  
Zahmatkash aqlning go'zal soyasi.  
Inson qalbi uning shamchirog'idir,  
Odam boshi esa, fikr bog'idir.  
Fikrlash tiriklik belgisi hamdir,  
Ular umrimizga odil hakamdir.  
Inson go'zal bo'lsa fikri ham go'zal,  
Egrilik bor joyda, to'g'rilik o'sal.  
Teran fikrlarning umri boqiyidir,  
Be'mani fikridan birov osiyidir.  
So'zlat jilo berar oqil fikriga,  
Fikrlar mozori ko'hna moziyidir.  
Fikrimga ne solsa yaratgan egam,  
Oqizmay, tomizmay, qoldirmay, bekam.  
Aytmoqlik burchimdir barchasin dadil,  
Baxil rad etsada, tushunar oqil.  
Tanimni tark etib, ruhim abadiy,  
Vujudim tuproqqa qorishganda ham.  
Fikrlarim qolib, go'yoki vahiy  
Kabi xalqqa xizmat qilishsa bardam.  
Demak men tiriklar safida borman,  
Yomonlarga yovman, yaxshiga yorman.  
Shu bois hayqirib, qilaman zikr,  
Bor bo'lsin haqiqat, yashasin fikr.

## AQL VA QALB MUNOZARASI

*Aql:*

Munchalar yonmasang ey qalb cho'g' bo'lib,  
Do'zax azobiga solib jonimni.  
Mabodo yonsangu ketsang yo'q bo'lib,  
Zamin qabul qilmas tomchi qonimni.  
Chunki ona yerga ne darkor qonim,  
Unga mening g'ayrat-shiddatim zarur.  
Shu aziz tuproqdir bog'u bo'stonim,  
Shu ona Vatandir ko'zimdag'i nur.

*Qalb:*

Shu gaping rost bo'lsa nega yonmayin,  
Kuymasdan kuydirib bo'lurmi tanni?!  
Vatan obod bo'lar yonganim sayin,  
Qalbi muz kimsalar sevmas Vatanni.  
Yurtga olchoq g'anim yovqarash qilsa,  
Nafratim otashi bombadan kuchli.  
Istiqlolni sotsa munofiq kimsa,  
O'tga aylanajak g'azabim, o'tli.  
Mansabparast ezsa bir bechorani,  
Yonmaslikka qanday topay chorani?  
Qonun qo'riqchisi olsa porani,  
Ochiq qilgim kelar darhol orani.  
Qallob ustozlarga qolsa yosh avlod,  
Hayqirmoq niyatim yurtga solib dod.

Afsuski, ming yonib cheksamda faryod,  
Telba majnun bo'ldim, bo'lmadim Farhod.

*Aql:*

Gaplaringda jon bor, lekin to'g'rimas,  
Hamma o'g'rilar ham, asli o'g'rimas.  
Kimir kuni o'tmay burda non tilar,  
Boshqa biri esa teringni shilar.  
Ehtiroslar bilan ish bitmas aslo,  
O't bilan o'ynashmoq xatarli. ammo,  
Ish yuritmoq kerak aqlni peshlab,  
Albattaadolat asosin ushlab.  
Quruq yantoq bo'lib lovullab yonib,  
Kul ham qoldirmaslik nodonlik bo'lar.  
Yonsang quyosh bo'lib, samodan enib,  
Zaminni yoritsang iqbol ham kular.  
Ziyo tarqatmoqlik kerak odamga,  
Ilmu ma'rifatda xalaskor qudrat,  
Buyuk bir kashfiyat qolsa olamda,  
Nomingni cho'lg'aydi mangulik shuhrat.  
Hayot qonunları sirli va sodda,  
Garchi yozilgandir moddama modda.  
Ular o'zgaradi har bir avlodda,  
Ey ko'ngil, sen shuni saqlagil yodda.  
Yog'da qovurilgan jizzaday yonma,  
Ko'mirday tutama, badbo'y taratib,  
Havvoyi hislarga ko'p ham ishonma.

Yasha bu olamda, olam yaratib,  
Sevging otashidan bedardlar kuysin.  
Nafrating o'tidan nomardlar kuysin,  
Yog'dungdan bu olam munavvar bo'lsin.  
O'lsang afsus chekib avlodlar kuysin.  
Shunday qalb bo'lolsang g'uloming menman,  
Hayotbaxsh so'zlar, **kaloming** menman.  
Bo'lajak avlodlarga **saloming** menman,  
Sen doim tepib tur, a'moling menman.

## BARNO QIZIMGA

Qizim senga aytay ikki og'iz so'z,  
Hayotda manmanlik o'ta yomondir.  
Birovga o'xshay deb, unga qadab ko'z,  
Yurgan odamlarning rangi somondir.  
Dunyoda har kimning o'rni bo'lakcha,  
Mo'rchadan filgacha barisi bordir.  
Kimdir boy, cho'ntakda to'liqdir aqcha,  
Kimdir gado bo'lib, ko'chada xordir.  
Umr bir daryodek oqib o'tadi,  
Nodon ham, oqil ham, shohu gado ham.  
Bir kun keladiyu bir kun ketadi,  
Huvillab qoladi yer ham, samo ham.  
Bevafo dunyoga mehrini qo'yib,  
Dabdaba, dag'dag'a qilar **ba'zilar**.  
Tashqi qiyofaga zeb ziynat berib.

NAJOT YO'LI

Ko'ngilga bir ko'ngil istab, jahon bozorini kezdim,  
Topolmay bir dilovarni, falak to'sonidek to'zdim.  
Ko'zim giryon, o'zim bir yon, yana bir yonda  
armonlar,  
Vujudim misli bug'doydek, tegirmon toshida  
ezdim.  
Malomat tushdi boshimga, zaharlar yog'di  
oshimga,  
Daryoday oqqan yoshimga, g'arq bo'lmayin  
debon suzdim.  
Amal nomardga yo'ldoshdir, bozor dalolga  
qo'ldoshdir,  
To'g'rilik keraksiz toshdir, shu toshga  
dardlarim yozdim.  
Tarovat yo'q bahorimda, saodat yo'q  
nahorimda,  
Javob yo'qdir savolimga, najot ham yo'q,  
o'zim sezdim.  
Ayo tangrim, o'zingdan, o'zga yo'qdir do'stu  
yor menga,  
Ko'ray deb pok jamolingni, dilimga surating  
chizdim.  
Kel, ey Shoyqul fido ayla shu joningni  
haqiqatga,  
Debon, g'urbat maskanlarin barini birma-bir  
buzdim.

TAQDIR DEVORI

*Inson – bu sabablarni  
izlayotgan mohiyatdir.  
G. Lixtenberg*

## ***BILIM – BEBAHO XAZINA***

*Umrim bo‘yi o‘qibon,  
Bilmasligimni bildim.  
Asli shuni anglabon,  
Dunyoga qayta keldim.*



## TO'RTLIKAR

Odamlarga omadlilar yoqmagay,  
Chunki barcha omad izlab yuradi,  
Birov unga yetar, birov topmagay,  
Yetmagani yetganini uradi.

\* \* \*

Miyasida shamol, fikrida tuman,  
Gapirar tumtaroq, go'yo yosuman,  
Birorta so'zida ma'no mantiq yo'q,  
Voiz vaqt o'g'risi! Bundaylar beman

\* \* \*

Boshingga balodir jim turmagan til,  
Deb ta'lim bergenlar mavlono Bedil.  
Qilichday kesadi, boltaday chopar,  
Gar uni sug'urib olmasalar, bil.

\* \* \*

Aql bovar qilmas natsaning  
Bo'lishini, inkor qilamiz.  
Hatto ko'zimizla ko'rsakda uni,  
Faqat tasodif deb, bilamiz.

\* \* \*

Osmondagi oy meniki, deganlar shoshar,  
O'zligini unutishar, haddidan oshar.  
Bir kun oddiy bandaligi yodiga tushar,  
Paymol bo'lar g'ururi ham, paymona pishar.

\* \* \*

Qayliqqa va'dani berishar quyuq,  
Go'yo bo'lar kiyimi zar, yegani quyruq.  
To'y o'tgach kuyovga bersa gar buyruq,  
Qotgan nonidan ham qoladi quruq.

\* \* \*

Baxtsizdirlar baxtsizlikdan qo'rqqanlar,  
Boshlarini bir kavakka tiqqanlar.  
Har qanday dushmanni maydonda dadil,  
Ko'krak kerib, jang qilganlar yiqqanlar.

\* \* \*

Ko'ngli ochiqlarning bir qusuri bor,  
Qalbida na hasad, na shubhadir yor.  
Shu bois ularning bo'ynidan quchib,  
Zahrini soladi «odam» degan mor.

\* \* \*

Poklik va sir aslo birga yashamas,  
Chunki, bir-biriga aslo o'xshamas.  
Poklikda hech qanday siru asror yo'q,  
Sirli kimsalarning dili pok emas.

\* \* \*

Poklik bilan ketsa uyat ham,  
Undan yaxshiroqdir tegsa o'lat ham.  
Uyat oriyatning ichki kiyimi,  
Yo'qolsa ko'rnar hamma illat ham.

\* \* \*

Sultonning bir qo'li aybdorni ursa,  
Boshqasi silasa beayb boshini.  
Arziydi umrbod taxtida tursa,  
Boshiga toj qilib baxt quyoshini.

\* \* \*

Qaylig'ning baxt orzusi,  
Ortda qolgan bekatdir.  
Oldinda rasmu rusum,  
Irim-jirim odatdir.

\* \* \*

Nodonning bilimga nafrati zo'rdir,  
Shu bois omadsiz, peshona sho'rdir.  
Yo'lidan adashmay yurmog'i mahol,  
Miyadagi aql javhari ko'rdir.

\* \* \*

Garchand biror harf bilmagan odam,  
O'zni siro tutib, jim tursa har dam.  
Ezma nodonlardan ming karra peshdir,  
Boshida bilimi hech bo'lmasa ham.

\* \* \*

Kar odamga nasihat qilmoq,  
Ko'rga chiroq tutmoqdir.  
Nokaslarga aql bo'lmoq,  
O'zingga go'r qazmoqdir.

\* \* \*

Tirishqoqlik erur yutuq doyasi,  
Sabr va chidamdir ikki qanoti.  
Ularga esh bo'lsa mehnat g'oyasi,  
Tag'mindir insonning zo'r kamoloti.

\* \* \*

Qaynab turgan qozondir bugungi  
hayot,  
O'tmish masallig'in qozonga solib.  
Kim zahar tayyorlar, kim esa navvot,  
Shu tarzda kelajak bo'ladi g'olib.

\* \* \*

Kelajak deb, bugun risqidan kechmoq,  
Tushdag'i go'zalning makriga uchmoq.  
Istiqbol egasi bo'lmoq uchun ham,  
Lozimdir bugunning taftida pishmoq.

\* \* \*

It hurar, ot kishnar, o'kirar ho'kiz,  
Xo'roz qichqiradi, sayraydi bulbul.  
Har gulning o'z hidi, bo'ladi so'zsiz,  
Turfa ranglik olam qonuni, bilgil.

\* \* \*

Kimdir olimlikni kasb-hunar bilgay,  
Ilmdan mansabga tinmay intilgay.  
Lek bilim daraxtin mevasi boshqa,  
Pishib yetilmog'i kamolot bo'lgay.

\* \* \*

Bog' yaratgan odam yuz yil yashagay,  
Fan yaratgan esa mangu barhayot.  
Olimni tarbiya aylasa padar,  
Bilingki ikkala dunyosi obod.

\* \* \*

Nega fan daraxtin mevasi shirin?  
Chunki unda buyuk mehnat yashirin.  
Ildizi achchiqdir ushbu daraxtning.  
Biroq hech kim bilmas bu holat sirin.

\* \* \*

Shubhaga olingan haqiqat fandir,  
Fan gugurt, hayot bir misoli tandir.  
Magar olim haqqa xiyonat qilsa,  
Iblisning jandası unga kafandir.

\* \* \*

Nonko'rlik hasadning farzandi bo'lsa,  
Manmanlikning erka jiyani erur.  
Kaltabinlik uning opasi bo'lsa,  
Og'aynisi ekan be'mani g'urur.

\* \* \*

Minnat qilish maqtanishning bir turi,  
Nonko'rlik qilganning peshona sho'ri.  
Chunki, oqil yaxshilikni unutmas,  
Nokas yuragida yaxshilik bo'lmas.

\* \* \*

Ko'rnamakka berganining kuyib ketadi,  
Qaytarib olmoq bo'lsang, zug'um etadi.  
Agar bergen bo'lsang unga noningni,  
Qanoat qilmasdan so'rар joningni.

\* \* \*

Daydi itni boqib olsang qo'riqlar seni,  
Erkalanib, kayfiyating ko'tarmoq  
bo'lar.  
Bir nokas bandadan tug'ilgan go'dak,  
Boqib katta qilsang ko'zingni o'yar.

\* \* \*

Har bir fan bashorat qabristonidir,  
Fidoyilik fanning shirin jonidir,  
Umrni bag'ishlab, umr yaratmoq,  
Ilm ahlining buyuk shabistonidir.

\* \* \*

Kimga ato etgan topqirliq,  
Boshqasiga esa chopqirliq.  
Kimga oyoq bergen, kimga til bergen,  
Menga esa, faqat faqirlilik.

\* \* \*

Millatchilik, millatni yo'q qiladi,  
Do'stni dushman, dushmanni o'q qiladi,  
Xalq Vatanni sevsaga agar yurt bo'lar  
obod,  
Vatanparvar o'z yurtini to'q qiladi.

\* \* \*

Ayrimlar o'ylaydi bilim og'ir yuk,  
Olimlar besamar, davlatmand buyuk.  
Garchi, puldor olim rutbasin olar,  
Lekin ilmi borlar tangriga suyuk.

\* \* \*

Shukr, bilmasligim bilim ko'rsatdi.  
Bilish yo'llarin ham menga o'rgatdi  
Jism yemrilsada, bilim charxlanur,  
Olim qadri ilmi bilan narxlanur.

\* \* \*

Chala mulla bo'lgandan, bo'lмаган yaxshi.  
Yarim-yorti bilgandan bilmagan yaxshi.  
Diplomli, savodsiz olim bo'lgandan,  
Umuman hech ish qilmagan yaxshi.

\* \* \*

Ko'п bilma, yaxshi narsalarni bil,  
Yana yaxshilarin bilishga intil.  
Har so'zing danakday mag'izli bo'lsin,  
Olimga martaba ulug'ver bir til.

\* \* \*

Olim qilib ko'rsatguncha o'zingni,  
Chalasavod ekaningni tan olgin.  
Har qadamda yashirguncha yuzingni,  
Qanday bo'lsang shundayligingcha qolgin.

\* \* \*

Mehnat xotirjamlik, vaqt bu xarajat,  
Bekor turganda ham sarf bo'lar albat.  
Baxt ham shunikidir tinmasdan, faqat,  
Charchamay, nolimay qilolsa mehnat.

\* \* \*

Ilm nima? Yo'l bilmoqdir,  
Ilm yo'jni, yo'ndirmoqdir.  
Olam sirin anglab so'ngra,  
Olamda olam bo'lmoqdir.

\* \* \*

Bilimdan qudratli hech narsa yo'qdir,  
Tarix va tabiat bunga guvohdir.  
Olimning qo'lida tinimsiz o'qir,  
Gar o'zi shahzoda, otasi shohdir.

\* \* \*

Uyatchan kimsalar tortinchoq bo'lar,  
Hayosizlarga xo'p ovunchoq bo'lar.  
Tortinchoqligidan qutilsa agar,  
Elga o'zi aziz, kayfi chog' bo'lar.

\* \* \*

Tuproqqa napisand qarovchi banda,  
Yerni tepib chandon urmagin xanda.  
Axir u otangdan qolgan emasdир,  
Barcha insonlarga buyuk merosdir.

\* \* \*

Yomonlikka yengni shimargan yomon,  
O'zgalar risqini o'margan yomon.  
Harom xarishni yeb semirgan yomon,  
Qabohat mayini shimirgan yomon.

\* \* \*

Yomonlikka undar qo'rquv va hasad,  
Bu ikkala ofat bilmagay sarhad,  
Hasad va qo'rquvni yengolgan odam,  
Eng buyuk boylikka ega, beadad.

\* \* \*

Dolzarb mavzularning hayotiy umri,  
Dolzarblik tugashi bilan tugaydi,  
Boqiylikka daxldor, muammo zo'ri,  
Yangi yechim topar, aslo o'lmaydi.

\* \* \*

Yaxshi odam hayotning donishmandi,  
Yomon odam turmushning mevasidir.  
Yarimta non yaxshining asal qandi,  
Yeb semirish yomonning shevasidir.

\* \* \*

Inson qancha kam bilsa, shuncha shubhadan  
yiroq,  
Ichida yog' bo'lmasa, qanday yoritsin chiroq.  
Ilmdan mosuvolar erur shubhadan holi,  
Olimlikning belgisi shubha bilan qaramoq..

\* \* \*

Keragidan ortiq bilmasang,  
Keragini qaydan bilasan?  
Har qadamda ilm olmasang,  
Aytchi qachon dono bo'lasan?

\* \* \*

Zargar bilar zebu ziynat sirini,  
Chunki ustoz tutgan zargar pirini.  
Lekin kulol aslo zargar bo'lolmas,  
Har qancha bilsada loyning sirini.

\* \* \*

Ko'zga ko'rinyay deb, og'izdan qoldi,  
Manmanlik aqlini kishanlab oldi.  
Shonu shuhrat izlab yugurdi, yeldi,  
Oyog'i toyribil, ko'chada o'ldi.

\* \* \*

Odamlar ongiga tazyiq o'tkazmoq,  
Quloqlardan kirib, miyani qazmoq.  
Bunday jinoyatning oldida hechdir,  
Muqaddas Ka'bani o'n marta buzmoq.

\* \* \*

Go'zal chehra goh niqobdir, goh ofstob,  
Adl qomat goho sarvu goh tayoq.  
Ruh ko'rinmas, o'qilмаган bir kitob,  
Lekin udir yo'lни yoritgich mayoq.

\* \* \*

Buyuk g'oya archaga o'xshab,  
O'sar tog'ning cho'ng qoyasida.  
Va ming yillar turadi ko'klab,  
Samovotning keng soyasida.

\* \* \*

O'z imkonin bilmоq yetuklik,  
Zarur ishni qilmoq yetuklik.  
Barcha ofatlarga tob berib zimdan,  
O'limni ham yengmoq yetuklik.

\* \* \*

Yoshlik tabiatning in'omi bizga,  
U bahor timsoli har o'g'il, qizga.  
Lekin bir cho'pchakni aytayin sizga,  
Yetuklik bog'liqdir o'z-o'zimizga.

\* \* \*

Tinkani quritgich, cheksiz istaklar,  
Bizni sargardonlik sari yetaklar.  
Goho meva istab, chorboqqa kirsak,  
Unda bizni kutar achchiq kaltaklar.

\* \* \*

Nodon otalardan dono o'g'illar,  
Tug'ilmas, o'tsada ast va yillar.  
Daraxtki azaldan achchiq mevadir,  
Uni o'zgartolmas yuzming oqillar.

\* \* \*

Bizdan qolar meros molu mulk emas,  
Yokim shonu shuhrat savlat-ko'rк emas.  
Umrni mazmunli yashamoq baxti,  
Yurtga meros qolsa, bizga yetar, Bas!

\* \* \*

Xudo bergen tabiatin hatto ilon ham,  
Qancha urinmasin o'zgartiroldi,  
Dunyo olimlari bo'lsalarda jam,  
To'g'ri yo'ldan yurmas, aslida nokas.

\* \* \*

Ro'za tutib gunohini yuvguvchi,  
Chirkin qalbla, farishtaday yurguvchi  
Yaxshisi begunoh, to'g'ri yashasang,  
Rahmatiga olar buyuk ko'rguvchi.

\* \* \*

Xotin bolasi bor taqdirning quli,  
Farzandsizlar esa dunyoning cho'li.  
Ikkisi ham azob uqubat chekar,  
Lekin borlaridir hayot bulbuli.

\* \* \*

Ikki xotin ikki olovdir.  
Kuydiradi ikki yoningdan,  
Ko'z yoshing choy, g'urbat palovdir,  
Umid yo'qdir shirin joningdan.

\* \* \*

O'g'ri ni oqlagan o'zi ham o'g'ri,  
Bukriga qo'shilgan bo'lajak egri,  
Adolat taxtini ushlab turuvchi,  
Ustuni aslida bechora to'g'ri.

\* \* \*

Ishqdan qochsang, o'zni ishga ur,  
Mehnat malham, darding bo'lsa zo'r.  
Unutmoq mushkuldir, chalg'imiq mumkin,  
Ko'msang o'chib qolar, o'choqdagi qo'r.

\* \* \*

Inson hayotiga nafsidir zo'r yov,  
Ortiqcha molu mult umrga egov.  
Boylik deb o'lganlar soni adadsiz,  
Umrni davlatga qo'ymaylik garov.

\* \* \*

Karlar operasi balet bo'lsa gar,  
Ko'rlarning baleti opera bo'lar.  
Kallarga do'ppisi doim toju sar,  
O'g'ringning aybini yopmas siymu zar.

\* \* \*

Oilang, bolang bor – taqdir qulisan,  
Ro'zg'or qorovuli, iqbol qo'lisan.  
Demak kelajakka javobgar o'zing,  
Hayotning kelajak sari yo'lisan.

\* \* \*

Fikringni oshkora qilsang mobodo,  
U seni tark etar, qolarsan yolg'iz.  
O'ljaga o'zini sezdirgan sayyod,  
Shubhasiz qaytadi uyiga ovsiz.

\* \* \*

O'ylasang obdon o'yla kallani ishlat,  
Aqlingga riyoza t asosin ushlat.  
Hatto omadsizlik omad keltirsin,  
Aql va tafakkur buyuk bir davlat.

\* \* \*

Millat har xil, dunyodir bitta.  
Dinlar ko'p lek, Xudodir bitta.  
U ham qalbimizdan joy olgan asli,  
Unga shak keltirmoq xatodir katta.

三三三

Erkalatsang bolangning peshonasi sho'r bo'lar,  
O'ttizga kirganda ham aqli kirmas g'o'r bo'lar.  
Ilm olmas, mehnat qilmas, ko'zi ochiq ko'r  
bo'lar,  
Tarbiyang pishiq bo'lsa bolalaring zo'r bo'lar.

\* \* \*

Xasis va o'g'rida o'xshashlik bordir,  
Xasis pul-molni deb ochu nahordir.  
U o'zini ochlikdan ajalga berar,  
O'g'riga pulu mol sevgisi dordir.

六六六

Qashshoqlik bombaning parchasi misol,  
Vujudingni ichdan qiladi behol,  
Umring zaharlanar, aqling qolar lol,  
Shu bois asragin topsang agar mol.

光

Har qanday zarurat qonundan afsal,  
Saxiy qashshoq, baxil Qorundan afsal.  
Magar sen Laylisan o'ylasang bundoq,  
Yoningdagi yoring Majnundan afsal.

\* \* \*

Shubha-gumondorlik, xastalik yomon,  
Kaltabinlik dardi shunda namoyon.  
Bunday qalbni hasad bilan bastalik,  
Kibru havo illati etmush oshiyon.

\* \* \*

Umridan norozi bo'lgan kishilar,  
O'zlarini baxtsiz sanab yurishar.  
Bunga ushalmagan orzular sabab,  
Chunki, ish o'rniga xayol surishar.

\* \* \*

O'z kuchiga ishonmas hech kim,  
Lek aqlidan hamma ham rozi.  
Aytib qo'yay, turavermay jim,  
To'g'ri o'lchay olmas buzuq tarozi.

\* \* \*

Dilga o't yoqadi har qanday to'siq,  
Undan o'tmoq hissi uyg'otar g'ayrat,  
O'tolmasang doim tilingdir qisiq.  
Qahramon bo'lsan o'tolsang albat!

\* \* \*

Dushmanni mensimaslik mag'lubiyat garovi,  
Manmanlik, kaltabinlik va badniyat g'arovi.  
Keyinroq og'ir bo'lar bu nuqsonlar so'rovi,  
G'aflatdag'i har bir sher, ayyor tulkining ovi.

\* \* \*

Nafrat, kulfat emas buyuk kuch,  
U g'urur, u qasos, alangali o'ch.  
Dushmanning joniga qo'yilgan tuzoq,  
O'rinsizdir boshqa har qanday izoh.

\* \* \*

Birovga nafratingni mehnatga qarat,  
G'animni lol qilib, yangilik yarat.  
Ado bo'lar, kuyib kul bo'lar dushman,  
Agar yuragida yoqolsang hasad.

\* \* \*

Dushmanning hasadi zo'rligimiz belgisi,  
Qah-qahasi esa g'o'rligimiz belgisi.  
G'animning nafrati hushyor torttirar,  
Gar buni sezmay qolsak ko'rligimiz belgisi.

\* \* \*

Nafrat – qo‘rquv mevasi, hasad – ojizlikning  
bevasi,  
Ikkisi bir bo‘lganda baland bo‘lar shevasi.  
Qo‘rqoq quyon tez o‘lar, ojiz banda xor  
bo‘lar,  
Olg‘a borar hamisha, jo‘shqin hayot kemasi.

\* \* \*

Makon va zamonda xordir uquvsiz,  
Bir burda nonga ham zordir uquvsiz.  
Shu boisdan ular har bir epchilga,  
Savol berishadi, «bunchalar quvsiz?»

\* \* \*

Xunuklik husnning yo‘qligi emas.  
Faqat basharaning tasqaraligi  
Butun vujud aslo xunuk ko‘rinmas,  
Aqlida bo‘lmasa masxaraligi.

\* \* \*

Umr dorilfunun, marsiya diplom,  
Birov pishib ketar birov esa xom.  
Hayot har lahzasi og‘u to‘la jom,  
Icha-icha bir kun bo‘lamiz tamom.

\* \* \*

Barcha mavhum narsalar buyuk  
tuyular,  
Hatto bir pulligi go'yo tengsizday.  
Mavhumlikdan tinmay yolg'on quyular,  
Niqob kiygan kampir ko'tinar qizday.

\* \* \*

Tuzalmas dardingga yig'lashdan ko'ra,  
Tangridan o'zingga matonat so'ra.  
Sabru e'tiqoding ko'rsada zora,  
Alloh mushkulotdan seni qutqarsa.

\* \* \*

O'zgarmaslik yolg'iz tangriga xosdir,  
Tinimsiz kamolot insonga mosdir,  
Faqat bu o'zgarish ijobiy bo'lsa,  
Alloh u insonga doimo do'stdir.

\* \* \*

Jangarilar ichra betaraf turmoq,  
Bilingki oqimga teskarri yurmoq.  
Jangari tomonlar birikib bir kun,  
Betarafni g'orat qilishi ayon.

\* \* \*

Betaraf bandaning bir qusuri bor,  
Har ikki tomonni qoralar hisyor.  
Aslida ikki yoq bir-birin yesa,  
Bo'laman deb o'ylar yolg'iz hukmdor.

\* \* \*

Betaraf do'st sodiq emasdir,  
Uning hisob kitobi ayon.  
Magar do'sti g'olib emasdir,  
O'sha zahot bo'lajak «quyon».

\* \* \*

Ezop demish: «Garchi astim qoradir,  
Qalbim rishtalari choc-chok yaradir,  
Lekin aqlim butun, o'tkir va pokdir  
Demak, husnim g'oyat go'zal, saradir».

\* \* \*

O'z-o'zini aldash, boshqalarni avrashdan  
oson,  
Hammani aldadim, deb, aldanishar ba'zilar.  
Nega kerak olamda birovni aldash, Inson,  
Har bir yolg'on tufayli, umrga go'r qazilar.

\* \* \*

His va tuyg‘ularning chegarasi bor,  
Ortiqcha shovqindan quloq bo‘lar kar.  
Ko‘zni ko‘r qiladi zo‘r chaqnasa nur,  
Haddan ziyod baxtdan ham ishkal chiqar.

\* \* \*

Hech narsani bilmagan banda,  
Hech narsadan qo‘rqmasa bo‘lur.  
Bilmaslikni qilmasa kanda,  
Hatto ajalini sezmasdan o‘lur.

\* \* \*

Bilmaslik gunohmas, riyokotlik ayb,  
O‘zni bilag‘on deb, ko‘rsatmoq gunoh.  
Bu olamda yo‘lg‘iz yaratgan beayb,  
Yo‘q ilmni bor qilmas boshdag‘i kuloh.

\* \* \*

Muqarrardir tug‘ulmoq, o‘lmoq,  
Orasida biroz yashamoq.  
Tasodif ham, ishq ham, mehr ham,  
Muqarrarlik oldida tuproq.

\* \* \*

Yigitning orzusi mustaqil bo'lish,  
Hech kimga bo'y egmay mardona yurish.  
Lekin unchalik ham osonmas bu ish,  
Boshqa mardlarga ham kerak yo'l berish.

\* \* \*

Bo'lay desang to'la mustaqil,  
Oltinga liq to'la kista qil.  
Qarz olma, bo'ysunma biron kimsaga,  
Har bir yumushingni puxta qil.

\* \* \*

Dunyoning sarhadi bo'lgani kabi,  
Chegarasi bordir erkinlikning ham,  
Undan nari o'tsang tobing qochadi  
Doimo haddingni bilib yur odam.

\* \* \*

Hech kim bosolmasin, desang o'rningni,  
Doimo o'zgarish va harakatda bo'l.  
Olam va odamga keng tut bag'ringni,  
Ajal yetganda ham o'ziga xos o'l.

\* \* \*

Xastalikdan qululmoqning ikki yo'li bor,  
Biri unga davo topib, shifo olmoqdir.  
Ikkinchchi yo'l kasallikka e'tibor bermay,  
Tan va ruhni har doimo sog'lom tutmoqdir.

\* \* \*

Tugal yutuqlardan chalasi peshdir,  
Yangi zafarlarga qoladi imkon,  
Ko'p ham hovliqmasang ishlaring beshdir,  
Qimirlagan qirni oshmog'i ayon.

\* \* \*

Faqat kamchilikni ko'rsa gar rahbar,  
Uning qalbi sovuq, quloglari kar.  
Mehr-muruvvatsiz bunday odamlar,  
Ikki dunyoda ham bo'lolmas sarvar.

\* \* \*

Olimning soqoli chala qirilsa,  
Beozor kulamiz xayolparast deb.  
Lekin, laqma biror qizga urilsa,  
Nafratimiz ortar ayolparast deb.

\* \* \*

O'zimizda kamchiliklar qancha kam bo'lsa,  
Boshqalar illatin shuncha sezmaymiz.  
Lek vujudda illat jamul-jam bo'lsa,  
Boshqalardan faqat illat izlaymiz.

\* \* \*

Yorni sevib nuqsonlarin sevmasang,  
Bilib qo'yki haqiqiy yor emassan,  
Tur desa turibog', o'l deganda o'lmasang,  
Ishq ahliga aslo sardor emassan.

\* \* \*

Aqling bo'lsa eldan aybingni yashir,  
Yo'qsa tanbeh berib, xor qilishadi,  
Sifatlaring bo'lsa timmasdan oshir,  
Shunda diydoringga zor bo'lishadi.

\* \* \*

Ulug'larning eng dahshatli asosiy aybi,  
Qilgan barcha ayblarining ulug'ligidir.  
Lek bu aybni go'yo boshqa qilgani kabi,  
Ulug'larning o'zi doim qurug'ligir.

\* \* \*

Xatolardan tinmay tarbiya topib,  
Charchab horib, dono bo'lib boramiz.  
Kimsasiz yo'llarda adashib chopib,  
Oxirgi manzilga yetib boramiz.

\* \* \*

Teshik ko'za suvga to'lmas,  
Yirtiq hamyon pulga to'lmas.  
Vijdoni kemtik kimsalar,  
Na molu, na pulga to'ymas.

\* \* \*

Kerak bo'lsa terak qular, dor bo'lar,  
Osmonda bulutsiz, atrof qor bo'lar.  
Zarurat har qanday qonundan ustun,  
Kim shuni bilmasa toru mor bo'lar.

\* \* \*

Kashfiyotlar validasi bo'lgan zarurat,  
Yo'qni bor qiluvchi afsunga o'xshar.  
Bo'z yigit boshiga tushsa gar kulfat,  
Zarurat tufayli arslonga o'xshar.

\* \* \*

Zaruratga xudolar ham qarshi borolmas,  
Zarurat charchamas, to'xtashni bilmas.  
Kimki zaruratga bo'yin egolmas,  
U tasodif quli, ajaldan o'lmas.

\* \* \*

Noyoblikni sevar zerikkan nodon,  
Topsa telba kabi bo'ladi shodon,  
Lek haqiqiy narxi neligin bilmay,  
Bir kun bu olamdan bo'ladi gumdon.

\* \* \*

Daho kimsalarning ko'ngli bo'shligi,  
Bir guruh iblislar ko'ngil xushligi.  
Shu bois daholar gunohga botib,  
Ba'zan bo'lishadi iblis tushligi.

\* \* \*

Hayot turfa tasodiflar tuguni,  
O'tmish ayon, aniq emas buguni.  
Ertaga ne bo'lar Xudo biladi,  
Banda hayot tandirining o'tini.

\* \* \*

Siyosatda xo‘p aziz va beba ho yolg‘on,  
Lekin umri o‘ta qisqa, bebaqo yolg‘on.  
Eshitigan qul oqni bir zum shod qilar,  
So‘ngra qon qu sdirar, bevafo yolg‘on.

\* \* \*

O‘ziga xos go‘zal bo‘lish ham ofat,  
Qadam ingda yotar dushman, kasofat.  
Ichingda o‘zingni saqlagin ammo,  
Qiyo fang hammaga o‘xshasin g‘oyat.

\* \* \*

Bemorning o‘limi dard dan qutilish,  
Askarning o‘limi jangda yutilish.  
Podshoning o‘limi muqarrar bo‘lsa,  
Vorislar qilishar tinimsiz urush.

\* \* \*

G‘alaba asosi jangda jasorat,  
Dushman saflarini qilmoqdir g‘orat,  
Lekin yengilmaslik yo‘li bo‘lakcha,  
Murosa, madora, adlu adolat

DO  
C

光 色

G'olibsan agarda kerak payt dono,  
Va zarur chog'ida nodon bo'lolsang.  
Hatto telbalikda ko'rsatsang ma'no,  
Lek dojmo iymoningda tuolsang.

水 水 库

Tulki sher, qarg'alar bulbulmiz deydi,  
Sassiq alaflar ham, biz gulmiz deydi.  
Yigirmata so'zni o'rganib to'ti,  
«Faqat biz olamga maqbulmiz» – deydi.

七

Surma ketar ko'z, o'sma ketib qosh qolar,  
Yolg'on yashiq gaplardan ko'zlardagi yosh  
qolar,  
Haqiqat eshiklari yopilmagay hech qachon,  
Qiyomat goimda ham haqni bilgan bosh qolar.

\* \* \*

Do'stlardagi qusurlar shodon etadi,  
Biroq bildirmay sekin, bizga o'tadi,  
Do'stlar xatolarin tuzatib yakdil,  
Yashasak baxtimiz ko'pga yetadi.

\* \* \*

Mavhum narsalardan doim qo'rqamiz,  
Sodda jismlarga qarab yo'rtamiz.  
Anglash qiyin bo'lgan ne bor olamda,  
Boridan yuz burib, inkor etamiz.

\* \* \*

Harqancha pokiza bo'lsada oyna,  
Puflasang namlanib, xira tortadi.  
Lekin bu o'zgarish yuzaki oshna,  
Asl aynimaydi, qadri ortadi.

\* \* \*

Qurbing yetmas ishga qo'l urma,  
Lek taqdirga teskari turma,  
Peshonangda bitgani bo'lar,  
Ko'r ko'zga nur bo'lolmas surma.

\* \* \*

Vujud tutab borar, yongan ko'mirday  
Ruh esa pok turar misoli nurday.  
Fikrlar o'zgarat, qalb qolar birday,  
Goh tikan, goho gul ko'kargan yerday.

\* \* \*

Tengsizlik tabiat o'lchami, a'lo,  
Undan aniq me'yor qidirmang aslo.  
Aqlni birovga ko'proq bersa gar,  
Boshqasin aqlidan aylagay judo.

卷之三

Biz qo‘rqqan narsalar undaymas asli,  
Faqat qo‘rqqanimiz uchun shundaydir.  
Bu fikr albatta insonning naslin,  
Dadil bo‘lmoqlikka undaydir.

\* \* \*

Qo'rquv va xayolga omuxta orzu,  
Ushalmog'i mushkul va amri mahol.  
Bu esa qashshoqlik, ochlik va og'u,  
Bo'lib zaharlaydi bizni har mahal.

六 \* 六

\* \* \*

Bir odamgaadolatsiz ish tutilsa gar,  
Tushar barcha ulamoning boshiga xatar.  
Ko'tatilar el-ulusdan hayru baraka,  
Musibatga aylanajak to'yu ma'raka.

\* \* \*

Ulkan haqsizlikdan salomat qolmoq,  
Tangrining mehriga sazovor bo'lmoq.  
Haqsizlikka qarshi kurashib o'lmoq,  
Yaratganga jonni sadaqa qilmoq!

\* \* \*

Birov kurashadi adolat uchun,  
Ayamay g'ayratu, davlatu kuchin.  
Adolatsiz rahbar yonini olib,  
Jon fido qilishar ba'zilar. Nечун?

\* \* \*

Adolat kuchda deb, o'ylaydi zo'rlar,  
Yo'q u pulda deb, bilishar g'o'rlar.  
Adolat yolg'onda desa ma'murlar,  
Adolat yo'q degay, manglayi sho'rlar.

## МУНДАРИЖА

*Qolsin ulug' ishtar bilan yaxshi ot* ..... 3

### *VATAN ISHQI*

Vatan .....	10
Bugun men ham shoir .....	10
Boyluk .....	12
Qashqadaryo .....	12
Qarshi qo'shig'i .....	14
Vatan mehri .....	15
Istiqlol marshi .....	16
Kesh qo'shig'i .....	17
Ka'ba .....	19

### *ISHQ – BU HAYOTDIR*

Meros .....	22
Sevgilim .....	23
Sevgini asrang .....	24
Qiz qo'shig'i .....	25
Etsa .....	26
Bormi .....	27
Bo'lmish .....	28
O'yntagay .....	29
Jononim .....	30
Hadya .....	31
Menga .....	31
Ishq dardi .....	32

<b>Chal</b>	.....
<b>O'tsam</b>	.....
<b>Tusar</b>	.....
<b>Istak</b>	.....
<b>Armon</b>	.....
<b>Topsam</b>	.....
<b>Etmish</b>	.....
<b>Bilmas</b>	.....
<b>Bo'yingdan</b>	o'rgilay .....
<b>Sevgi</b>	.....
<b>Biz</b>	.....
<b>Bahor meni aldama</b>	.....
<b>Ko'zim</b>	.....
<b>O'tinch</b>	.....
<b>Izlab</b>	.....
<b>Botmish</b>	.....
<b>Roman</b>	.....
<b>Bashariy</b>	sevgi .....
<b>Ishq siri</b>	.....
<b>Sonet</b>	.....
<b>Fido bo'ldim</b>	.....
<b>Rad etmang</b>	.....
<b>Bo'lib</b>	.....
<b>Yo'q</b>	.....
<b>Hilol</b>	.....
<b>Intizor</b>	go'zalga .....
<b>Hazil</b>	.....
<b>Bo'larkan</b>	.....

	33
	34
	35
	35
	36
	37
	38
	39
	40
	41
	42
	42
	43
	44
	45
	46
	47
	48
	48
	49
	49
	50
	50
	52
	53
	54
	55
	56

G'uncha lab .....	56
Tosh va suv .....	57
Aylarmikan .....	58
Ishq – hayot .....	59
Damlar .....	60
Iztirob .....	61
Kelur .....	62
Bo'lgay .....	63
Fig'onimga .....	64
Ajralgay .....	65
Sevdimu .....	66

### *INSONNING QANOTI – DO'STI*

Baxt haqida .....	68
Bitiruvchilar .....	69
Taqdir .....	70
Tarixchi akam Shodi Karimga .....	71
Yaxshilar va yomonlar haqida .....	73
Ro'zg'or .....	74
Aziz ukam .....	75
Omad sizga .....	76
Tushunmasman .....	78
Onam allasi .....	79
Estafeta .....	80
Abadiyat .....	81
Chashma .....	82
Kutish .....	83
Har to'kisda bir ayb .....	84
Vaqt .....	85

Sher bilan qarg'a .....	86
Chempion .....	87
Yurak munozoti .....	88
Inson qalbi .....	89
Do'stlik qudrati .....	90
Kim sodiq do'st .....	90
Do'stlik .....	91
O'rmonga o'xshaydi dunyo .....	92
Tarixni o'qib .....	93
Majnuntolga .....	94
Ona qalbi .....	95
Imtihon .....	98
Ko'rinar .....	99
Bo'lsa .....	100
Fikrlar haqida qo'shiq .....	101
Aql va qalb munozarasi .....	102
Barno qizimga .....	104
O'g'limga .....	106
Taqdir qo'riqchisi .....	109
Pokiik .....	110
Najot yo'li .....	111
Taqdir devori .....	112
To'rtliklar .....	114

*Adabiy-badiiv nashr*

Shoyqul Karim

**ANOSIR**

*She'rlar, g'azallar, to'rtliklar*

Muharrirlar

A.XUDOYBERDIYEV, A.QUTBIDDIN

Badiiy muharrir

B.BOZOROV

Tehnik muharrir

Ye.DEMCHENKO

Musahhih

N.JABBOROVA

Kompyuterda sahifalovchi

F.BOTIROVA

IB № 4151

Bosishga 10.03.2006y.da ruxsat etildi. Bichimi  
60x84 1/32. Bosma tobog'i 4,75. Shartli bosma  
tobog'i 4,42. Adadi 1000 nusha. Buyurtma №51.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangj asr avlod» nashriyot-matbaa markazida  
tayyorlandi. «Yoshlar matbuoti» bosmahonasida  
bosildi. 700113, Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol  
ko'chasi, 60.